

Hofiz Sheroziy (1325B 1388)

Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziy Eronning Sheroz shahrida tug'ilgan. Lekin butun umri davomida ona shahridan chetga chiqmagan bu "isonafaslik rindi Sheroz" (Navoiy) o'zining yoniq she'rlari bilan yarim dunyoni egalladi va o'zidan keyingi Sharq G'arb adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Buyuk nemis shoiri Hyote Hofizni "noyob uslub dahosi", "muqaddas Hofiz" deb ulug'lab, uning ta'sirida "G'arbu Sharq devoni"ni yaratgan bo'lsa, V. Jukovskiy, A. Pushkin, Yu. Lermontov, A. Fet, S. Yesenin kabi rus shoirlari Hofizdan ilhomlanib, "hofizona" ohanglarda she'rlar yozganlar, uning ijodini yuksak baholaganlar. Sharqda esa Sheroz bulbulidan ta'sirlanmagan shoirning o'zi yo'q hisobi.

Mashhur hind shoiri va mutafakkiri Muhammad Iqbol Hofizni buyuk sehrigar, deb luft etgan edi. Chindan ham dunyo adabiyotida so'zni Hofizday ming bir maqomda o'ynatgan, so'zga ming bir ma'no yuklagan, so'zni ming bir sehru sinoat pardasiga o'ragan yana bir shoirni topish mumkin emas. Hofiz she'rlari tabiiyligi, samimiyligi, hassos bir muhabbat va yuksak badiiyatga yo'g'rilganligi, mazmuni teran va serqatlamligi, falsafasining quyuqligi, nozik ishoralarga boyligi, uslubining murakkabligi uchun ham unga "lison ul-g'ayb" - "g'oyibning tili" sifatini berganlar. Hofiz Sharqda shunchalik shuhrat tutganki, uni muqaddaslashtirib, ilohiylashtirib, devonini fol kitobiga aylantirganlar. Shoir devoni madrasalarda maxsus darslik sifatida o'qitilgan. Sharqda hofizxonlik katta shuhrat qozongan.

Hofiz hammayoqni vayronaga aylantirgan mo'g'ullar hukmronligi inqirozga uchrab, mayda xonliklar o'rtasidagi o'zaro toju taxt talashlari avj olgan, bundan xalqning tinkasi qurib, ahvoli xarob bo'lgan bir davrda yashab ijod etdi. Uning davrida Sheroz 5 marta ana shunday janglar girdobiga tortilib, o'zi vayron, xalqi qatli om qilindi. 50 yil (1338B 1388) mobaynida 6 marta podshoh almashganligi ham shoir yashagan davrning notinchligini ko'rsatadi. Bu narsa uning ijodiga ta'sir etmasligi mumkin emas edi. Ma'shuqa ta'rif-tavsifi, visol lazzati-yu, hijron hasratini tarannum etish vositasi bo'lgan g'azalga Hofiz ijtimoiy mavzular, falsafiy fikr-mulohazalarni omuxta qildi. U ishq atalgan ulkan va bepoyon mavzu ichiga Olam va Odam dardini, o'z davrining o'tkir ijtimoiy muammolarini dadil olib kirdi va mahorat bilan she'rga soldi. Hofizni Hofiz qilgan narsa aslida shu. Shoir insonning orzu-ntilishlari, quvonchu qayg'usi, dardu tashvishlari, muhabbati, fikru o'ylarini avj pardalarda kuylash bilan adabiyotning asosiy ob'ekti inson ekanligini amalda isbotladi. Shuning uchun ham, mana, VII asrdirki, uning shuhrati zarracha kamaygan emas, bil'aks, kundand-kunga ortib bordi va bundan keyin ham shoir ijodiga bo'lgan qiziqish so'nmasligi shubhasiz.

Hofizdan bor-yo'g'i bir devon meros qolgan. Shuni ham uning o'zi tuzmagan. Bu ishni Hofiz vafotidan 30B 40 yil keyin shoirning do'sti va shogirdi Muhammad Gulandom amalga oshirgan. Lekin shu birgina devoni bilan ham u yarim dunyoni egalladi. Firdavsiy masnaviyini, Umar Xayyom ruboiyini qanchalik takomilga yetkazgan bo'lsalar, Hofiz Sheroziy ham g'azalni shunchalik yuksak poyata ko'tardi. Mana, necha asrlardan buyon ruboiyda biror shoir Umar Xayyomga yetolmagani kabi, g'azalda ham hech kim Hofizning oldiga tusholgan emas.

Hofiz ijodidan namunalarni o'zbek tiliga Xurshid, Muinzoda, Chustiy, Vasfiy, Sh. Shomuhamedov, J. Jabborov, E. Vohidov, M. Kenjabek, O. Bo'riyev kabi fors-tojik adabiyotining bilimdonlari tarjima qilganlar.

G'azallar

Xurshid tarjimalari

Agar ko'nglimni shod etsa o'shal Sheroz jononi,
Qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni.
Sun, ey soqiy, maying oxirgacha - jannatda topmaysan
Bu Ruknobod qirg'og'idagi so'lim Musalloni.
Shu aldoqchi, qiziqchi, fitnachi sho'xlar qo'lidan dod,
Ko'nguldan eltdilar sabrim qilib turklarcha yag'moni.
Mening nuqsonli ishqimga uning husni emas muxtoj,
Go'zal yuz hech talab qilmas bo'sq ham zebu oroni.
Gapir cholg'uchidan, maydan - jahon sirrini kam izla,
Yecholmas hech kishi hikmat-la bu og'ir muammoni.
Men ul Yusufdagi cheksiz go'zallikdan aniq bildim:
Chiqormish ishq nomus pardasidan ul Zulayxoni.
Yomon, deding, quvondim man, Xudo haqqi, so'zing to'g'ri,
Go'zalroq ayladi achchiq so'zing la'li shakarxoni.
Nasihat tinglagil, jono, tuturlar jonu dildan do'st
Aqlli, baxtli yoshlar hurmat aylab kekxa dononi.
G'azal etding-u dur sochding, yoqimli kuyla, ey Hofiz,
Falak nazmingga gavhardek nisor etsin Surayyoni.

* * *

Ayo soqiy, sunib joming, qil ehson yashnasin dillar,
Ko'rindi avval ishq oson-u, so'ngra tushdi mushkillar.
Sabo yechmoqchi bo'lgan sochining xush bo'yiga ontkim,
Muanbar halqa-halqa sochidan qon bo'ldi bu dillar.
Botir sajjodani mayga agar piri mug'on aytsa,
Yo'lovchiga erur ma'lum yo'l ahvoli va manzillar.
Menga yor uyida ishrat qurish imkoni yo'q har dam,
Qilurkan qo'ng'iroq faryodki, bog'lang yukni g'ofillar.
Qorong'idir kecha, qo'rqinchli mavj, dahshatlidir girdob,
Na bilgay holimizni chetda turgan yuki yengillar.
Yomon ot birla fosh o'ldi ishim oxir o'jarlikdan,

Nechuk yoshirin qolur sir so'zlasa majlisda oqillar.
Agar vasl istasang, undan yiroqqa ketma, ey Hofiz,
Tilakni izla, qo'y dunyoni, ber orzuga tabdillar.

* * *

Cholg'uchi, aylagil navo yangi va yangi, xilma-xil,
Izla sharobi dilkusho yangi va yangi, xilma-xil.
Ko'ngling ochuvchi yor ila, xilvat o'tir nigor ila,
Bo'sa-la kom etib ravo, yangi va yangi, xilma-xil.
Senga tilak bo'lurmu rom, ko'tarmasang qadah mudom,
Yedi-la mayni ich raso yangi va yangi, xilma-xil.
Nima qilsang, go'zal pari, qilgusi men uchun bari
Rang ila o'smavu hino yangi va yangi, xilma-xil.
Tong yeli, essang har qachon gar o'sha dilbarim tomon,
Hofizning arzin et ado yangi va yangi, xilma-xil.

* * *

Qayonda o'nglamoq ishni va man xarob qayon?
Vu yo'l qayonda-yu, men qaydaman, javob qayon?
Biri-biridan uzoq - so'fiylik bilan rindlik,
Qayon nacihat uzoq, nag'mai rubob qayon?
Ris to'nidan-u, butxonadan ko'igil bezdi,
Qayonda dayri mug'onu sharobi nob qayon?
Esardi vasl shamoli, ajab go'zal chog' edi,
Qayon u nozu karashma ham ul itob qayon?
Nima gapirsa u dushman dili-yu, do'st yuzidan -
So'niq chiroq qayon, ravshan oftob qayon?
Ko'zim yoritguchidir ostonangiz tuprog'i,
Qayon ketay bu eshikdan, buyur, xitob qayon?
Yugurma olma zanaxdonga, choh yo'l ustidadir,
Qayon borursan, ey ko'ngul, bu xil shitob qayon?
Qaroru sabrni Hofizdan istama, ey do'st,
Qayon qaroru chidam dilda, ko'zda xob qayon?

* * *

Ey soqiy, boda nuri-la porlat shu jomimiz!
Sozanda, chal, jahonning ishi bo'ldi romimiz.
Ko'rdik nigor aksi jamolin piyolada -
Bois bo'lib qadah ko'tarishga davomimiz.
Nozu karashma, ishva qilur qaddi sarvlar
Kelmakda deb u sarvi sanobar xiromimiz.
Hech o'lmagay kishiki, dili ishq ila tirik,
Olam sahifasin boshida bizni nomimiz.
Bir makr etarmi, deb meni izlatsa qo'rqaman,
Pirning halol nonida bizning haromimiz.
Gar do'stlarimiz bog'i tomon essang, ey sabo,
Albatta, yori jonga yeturgil salomimiz.
Takrorlama nomimizni - budir senga iltimos,
Kesin o'zi, gar eslamas aytganda nomimiz.
Mastlikpi zavqi dilbari barno ko'ziga xos:
Ul yuzda ixtiyorimiz, ul zulf domimiz.
Hofiz sochar ko'z yoshini donadek mudom,
Budir umid vasl: qushin tutsa domimiz.

* * *

Keldi masjiddan bu kech mayxona sori pirimiz,
Ne bo'lur, yo'ldoshlarim, bundan keyin tadbirimiz?
Biz muridlar qaysi yo'l birla borurmiz Ka'baga?
Boshlamoqda yo'lni mayxona tomonga pirimiz!
O'tparastlar manzilida biz ham aylarmiz makon,
Chunki shunday deb yozilmishdir azal taqdirimiz.
Band bo'lib zulfiga dil shod bo'lganin bilsaydi aql,
Aql eli istardi devona bo'lib zanjirimiz.
Shul go'zal yuz lutfu ehson oyatin etdi bayon,

Shu uchun yaxshiligingdan o'zga yo'q tafsirimiz.
Tosh kabi qattiq dilingga hech bir aylarmi asar,
Shuncha o'tlug' oh birla yo'qmidir ta'sirimiz?
Ohimizning o'qlari, Hofiz, falakdan ham o'tar,
Rahm qil joningga, saqlan, tegmagay to tirimiz.

* * *

Soqiyo, kel endi sungil jomni,
Joyla tuproqqa g'ami ayyomni.
Ber qo'linga bir piyola may shu dam,
Tashlayin malla to'nu ehromni.
Aql elicha bu yomonlik bo'lsa ham,
Istamaymiz sharmu oru nomni.
Boda sun ham ushbu mag'rurlikdan,
Tinchlanib qo'y nafsi beoromni.
Bu yoniq ko'ksimdan ohim o'tlari -
Tushdi, kuydirdi shu bag'ri xomni.
O'z dilim sirriga mahram topmadim,
Izladim har qancha xosu omni.
Bir dilorom ila ko'nglim shod erur,
Elti dildan bir yo'la oromni.
Boqmagay hargiz chamanda sarvga,
Kimki ko'rsa ul sihiandomni.
Sabr qil, Hofiz, tunu kun ranjiga,
Bir kuni topgaysan albat komni.

* * *

G'ami tokim dilimda tutdi ma'vo,
Boshimga zulfi yanglig' tushdi savdo.
Uning o'tdek labi obi hayotdir,
Bo'libdir ul olov bag'rim aro jo.
Qachonlardan beri himmat qushiga
Bo'libdir ul qadi ra'no tamanno.
Baland qaddiga men bo'lganman oshiq -
Mudom oshiq ishi goksak va a'lo.
Oqar yosh gavhari ko'z daryosidan,
Duru marvarid ila to'ldi dunyo.
Sochar anbar isin tong yeli bu kun,
Magar yorim qilibdur sayri sahro?
Mudom Hofiz tili, ey sarvi nozim,
Qading maqtovida burro va go'yo.

* * *

Gul yonda-yu may qo'lda, rafiq dilbari jondur,
Menga bu kabi kunda g'ulom shohi jahondur.
Ayt: sham' ketirmangiz-u bazm ichra bu oqshom,
Oy yuzli go'zalning yuzi majlisda ayondur.
Gar mazhabimiz boda halol der edi, lekin,
Ey sarv, yuzing bo'lmas ekan, boda yomondur.
Doim qulog'im band nayu nag'mayu changga,
La'li labu jom davriga ko'zlar nigarondur.
Majlisga atr xrjat emas, jonni dimog'i
Har lahza soching islaridan atrga kondur.
Qand ila shakar qancha shirin bo'lsa, dam urma,
Shirin labing orzusi menga virdi zabondur.
Ul choqki, g'aming xaznasi joy oldi dilimda -
Shundan beri men qulga xarobotda makondur.
So'z qilma uyatdan - meni rasvoligim undan,
So'rma otim - ul ot meni sharmimga ziyondur.
Och ko'zniki, rind, mayxo'ri ovvora desang - biz,
Bu shahrda bizdek emas ul kimsa qayondur?
Aybimni dema muxtasib oldidaki, ul ham
Bizdek qiladur aysh talab qancha zamondur.
Hofiz, mayu ma'shuqasiz o'lturma zamone -
Kim, yosumanu gul chog'i, iydi ramazondur.

* * *

Ikki rafiq shu zamon beg'arazu olijanob,
U - she'r to'plami ham suv qo'shilmagap mayi nob.
Bu yo'lga yolg'iz o'zing yurgil, ofiyat yo'li tor,
Ko'tar piyolani - o'tgan umr erur noyob.
Bilimga etmay amal qayg'uruvchi bir men emas,
Qilur o'zin ulamo ilmi beamalda xarob.
Aql ko'zi bila boqqil bu fitna olamiga,
Jahon ila bu jahon ishlari jadal va shitob.
Yuzingga yetmak umidi ko'p erdi dilda, biroq,
Ajal - umid va umring yo'lida bir girdob.
Hikoya so'zlama, oy yuzli yor zulfini tut:
Shum ila qutlug' erur Zuhrayu Zuhalda hisob.
Topolmagaylar uni hech bir nafas hushyor,
Negaki, Hofiz azal bodasi bilan serob.

* * *

Ko'zim qorachig'i qon ichra noladan tun-kun,
Qaro sening tilaging-la shu holda xalq butun.
May ila mast ko'zu la'l labingni yodi bilan
Qizil may ichdim-u, u hasratingda bo'lgay xun.
Yuzing quyoshi sening mashriq ostonangdan
Agarda chiqsa kulib, porlagay bu baxti zabun.
Hikoya ayladi Shirin labin mudom Farhod,
Ham etti Layli sochi halqasin makon Majnun.
Dilimni ovla - qading sarvi diljo'y emish,
Gapir - yoqimli so'zingda erur durri mazmun.
Shu boda davrida ber jonga rohat, ey soqiy,
Falakni jorli davri yurakka soldi tugun.
O'shal zamonki, ketibdur yonimdan ul yorim,
Ko'zimni tegrasida bo'ldi yoshlarim Jayxun.
Nechuk bu g'amli yurak shod o'lub, quvong'aykim,
Yo'q ixtiyor o'zida, zarra yo'q qaroru sukun.
Esin yo'qotganidan yor etar talab Hofiz,
Chunonchi, istadi yo'qsil xazinai Qorun.

* * *

Dil - saroyi muhabbatidur uning,
Kuz - yoritg'uchi tal'atidur uning.
Ikki dunyoga boshni egmasdan
Gardanim uzra minnatidur uning.
Senu to'bi-yu, men - qaddig'a asir,
Kim na fikr etsa, himmatidur uning.
O'tti Majnun zamoni - gal bizga,
O'tkazar, kimki navbatidur uning.
Men netay xilvati aroki, sabo
Pardador o'ldi - hurmatidur uning.
Ishqning mulki-yu, quvonch ganji
Menda bor, bu - inoyatidur uning.
Yo'q zarar dil bilan men o'lsak ham,
Qasdimiz tan salomatidur uning.
Bo'lmagay hech xayoli ko'zdan uzoq,
Chunki bu burchak xilvatidur uning.
Bersa oro chamanga har yangi gul,
Bori ta'sir suhbatidur uning.
O'zi yo'qsil ko'rinsa ham Hofiz,
Ko'ksi ganji muhabbatidur uning.

* * *

Zohido, aylama rindlarga gunohkorcha xitob,
Boshqalarning gunohi-chun seni qilmaydi itob.
Yaxshiman, xoh yomonman - o'z ishingni o'nгла,
Hosil ekannikidir, sen bu uchun olma hisob.

Mastu hushyor - hama odamga talabdur dildor,
Farqi yo'q - sevgi uyi masjidu ham dayri xarob.
May uyining eshigi tuprog'iga bosh tutdim,
Kimki so'z uqmasa, xisht-la boshiga ursa savob.
Meni qo'rqitma azal yozmishin aylab takror,
Ma'lum ermas senga kim yaxshi erur, kim nobob.
Zuhdu taqvodan uzoq bo'lg'uchi yolg'iz men emas,
Balki jannatdan otam chetlatgali qildi shitob.
Toating maqtama, ey so'fiyki, taqdir qalami
Na bilursan, nima deb noming atab yozdi kitob?
Yaratilmoqda bu bo'lsang - juda toza asling,
Bu esa senda tabiat juda ham olijanob.
Bo'lsa jannat bog'i ham qancha yoqimli, lekin,
Bil: g'animat senga tol soyasi ham jomi sharob.
Hofizo, olsang o'lim chog'ida qo'lg'a bir jom,
Borasan to'g'ri bihisht bog'iga - ko'p chekma azob.

* * *

Sharobu aysh nadur yoshrin aylamak bunyod,
Qo'shildik rind safiga - endi foydasiz faryod.
Yurak tugunlarini yech, falakni o'ylama hech,
Yecholmadi bu tugunni biror yetuk ustod.
Qadahni tutgil adab shartlarin rioya qilib,
Bu kosa tarkibi Jamshidu Bahrom ila Qubod.
Qayonga Jamshidu Kay ketdilar - birov bilmas,
Kim anglagay - ne uchun bo'ldi taxti Jam barbod?
Ko'zinning oldidakim: Shirin ishqu hasratidan
Yetardi lolazor ichra vatan tutib Farhod.
Magarki lola jahon bevafoligin bildi
Kelib-ketib, qo'lidan shisha bo'lmadi ozod.
Uzoqqa ketgali menga ijozat bermaslar,
Ko'ngilda zavqi Musalloyu nahri Ruknobod.
Dafu chang ovozi ostida sof bodani ich,
Sevinch inaklaridan qildi pardasin ijod.
Yetishdi ishqi g'amida ne yetsa Hofizga,
Zamonaning ko'zi oshiqqa solmasin bedod.

* * *

Yuzlaring aksi tushib boda to'la jom ichra,
Kuldi may, so'fiyni qo'ydi tama'i xom ichra.
Topdi may shu'lasidan xonish ila nag'ma rivoj
Tushdi bir nurki soqiy yuzidan jom ichra.
G'ayrati ishq kesar xos kishilarning tilini,
Yo'qsa kim fosh etadur sirni elu om ichra.
Bag'ri yongan men-u, dilbar qarashi boshqa menga
Bu gadoga nima loyiq ko'rur in'om ichra.
To'g'ri ko'rguchi yetar poklik ila maqsadga,
Egri ko'rguchi tushibdur tama'i xom ichra.
Uynab-o'ynab, uni g'am tig'ini kutmak lozim,
Kim uning-chun bo'ladur yaxshi saranjom ichra.
Osilib zulfingga ul chohi zanaxdon chiqdi,
Ohki, choxdan qutulib, tushdi yana dom ichra.
Meni ko'rsang kerak, ey so'fiy, ibodat uyida,
Fikrimiz soqiy yuziyu ko'zimiz jom ichra.
Men xarobot sari ketmasdim ibodat uyidan,
Soldi taqdir meni bu qolga elu om ichra.
Na qilur yurmasa gardish chetida pargordek,
Tushsa har kimsaki bu gardishi ayyom ichra.
So'fiylar barchasi bir fikrdadirlar, lekin,
Qoldi bu o'rtada Hofiz nomi badnom ichra.

* * *

Dilbar ketib, asirlariga qilmadi xabar,
Yo'ldoshu tenglarin unutib, aylamish safar.
Baxtim unutdi yoki muhabbat yo'sinlari,

Yo tashlamas nigor xaqiqat sori nazar.
Men sham'dek turib tiladim: jon fido qilay,
Men sori tong shamoli kabi esmas u magar.
Qilsam fig'on - bo'lurmi dili mehribon? - dedim,
Yomg'ir u tosh yurakka qilurmi ekan asar?
Har kim yuzingni ko'rsa, uni bo'sa etdi ko'z,
Ushbu bahona birla ko'zim bo'ldi bahravar.
Hayronman - ulfat o'ldi nechun u raqib bilan,
Bir joyda saqlamas-ku kishi munchog'u gavxar.
Hofiz, tili kesik qalaming anjuman aro
Aytmas siringni kimsaga, bosh ketsa ham agar.

* * *

Har nafas xajr alamidan chekaman yuz faryod,
Senga yel nolami yetkurmasa, g'am menga ziyod
Ne qilay aylamayin nolayu faryodu fig'on,
Bo'lmasin hech kishining va'zi meningdek barbod.
Tunu kun qon yutaman - boshqa ilojim yo'qdir,
Oy jamolingdan uzoq mumkin emas bo'lmoq shod.
Sen qachon bo'lding uzoq men kabi dilso'xtadan,
Qon bulog'ini ko'zim qildi ko'zimda bunyod.
Kiprigim reshاسidan qon tomadur yuz qatra,
Ayriliqiing g'amidan cheksa dil ohu faryod.
Kechdi Hofizga seni yod etish ila tun-kun,
Sen-chi, bu qul g'amidan bo'yla tamoman ozod.

* * *

Dedim: G'aming chekarman. Dedi: O'tar bu g'am ham
Dedimki: Menga bo'l oy. Dedi: Chiqar biror dam.
Dedim: Vafolilardan o'rgan vafo yo'lini.
Dedi: Go'zal sanamda mehru vafo bo'lur kam.
Dedim: Soching isi-la yo'ldan butun adashdim.
Dediki: Bandalik et - bo'lgay nigor hotam.
Dedimki: Toza ko'ngling bo'lgay qachon muloyim?
Dedi: Jafoga sabr et, shoyad yetar o'shal dam.
Dedim: Xayoling ila termuldi ko'z yo'lingga.
Dediki: Tun yurarning so'qmog'i boshqa olam.
Dedim: Ajab havo bu - jainatdan esdi go'yo.
Dedi: Bu yor saridan esgan shabada - ko'klam.
Dedim: Labing mayining orzusi birla o'ldim.
Dediki: Sabr qilsang, bo'lg'usi dardga marham.
Dedimki: Ayshu suhbat, ko'rdingki, qanday o'tdi?
Dedi: Jim o'lki, Hofiz, kechgay bu qayg'u - motam.

* * *

Har nechakim yuzlaring oy, kunga nisbat qildilar,
Surating ko'rmay turib, taxmin-la tuhmat qildilar.
Ishqimizning sho'rishidan zarra miqdorindadir
Har nakim Farhodu Shirindan hikoyat qildilar.
Jon bag'ishlar yuzi gullarning oyoq gardi isi,
Onglilar undan dimog'in chog'u rohat qildilar.
Qarg'a, quzg'un ov uchun bog'lab boqishga arzimas,
Lochinu qirg'iyni ammo shunday izzat qildilar.
Boqmangiz rindlarni tahqirlab, safol deb kosasi,
Bu hariflar jomi Jam bazmida xizmat qildilar.
Qilmadi mujgon o'qi ham jodutar afsunlari,
Javrlarkim, zulfu mushkin xoling odat qildilar.
Bizga bir bo'sa yetardi - qilmadi ruxsat labing:
Bu shirin lablar mudom shunday ishorat qildilar.
Soqiyo, may ber - azal taqdirining tadbiri yo'q,
Hech bir o'zgarimasligin ta'kidu hujjat qildilar.
O'tli, pardoqli yuzi birla go'zallar dam-badam
So'fiylarning dil bilan diniii g'orat qildilar.
Maqtadi ehsonlaring she'rida Hofiz har qachon,
Tinglaganlar she'rini tahsin-u rahmat qildilar.

* * *

Oftob kabi har ko'zga yuzing jilvagar o'lsin!
Xo'bliqda yuzing xo'blig'i har on digar o'lsin!
Davlat qushi - lochin pari yanglig' qaro zulfing
Dunyodagi shohlar boshida toji sar o'lsin!
Har dilki, sening zulfinga band o'lmas ekan, u
Bo'lsin jigari qon, o'zi undan batar o'lsin!
G'amzang o'qi yog'sa, sanamo, boshima har dam,
Ul o'q qoshida g'amzada ko'nglim sipar o'lsin!
Bir bo'sa menga ushbu shakar labdan et ehson,
Jon komi uning lazzati birla shakar o'lsin!
Har lahza menga yangilanur shavq ila ishqing,
Har damda sening ravnaqi husning digar o'lsin!
Hofiz dilu joni ila diydoringga mushtoq,
Bir boq unga - ehsoning ila bahravari o'lsin!

* * *

Yuzingdek yorqin oy osmonda ham yo'q,
Qadingdek sarv hech bo'stonda ham yo'q.
Labingdek la'l yo'q - dil etguchi shod,
Tishingdek toza bir dur konda ham yo'q.
Labing jonbaxsh rayhon orasida -
Bu xislat chashmai hayvonda ham yo'q.
Senga bir tan teng o'lmas bu jahonda:
Tan ermas, ushbu tenglik jonda ham yo'q.
Erur Hofizni she'ri shirin, ammo,
Shirinlik yor labidek onda ham yo'q.

* * *

Ko'ngilda labingni shavqi, jono,
La'lingdan unga nedir tamanno.
Shavqing mayi, sevgining itrobi
Dil shishasida bori huvaydo.
Zulfingni asirlariga doim
Dard ila baloni domi ma'vo.
Dildorim oti nedir, so'rardim,
Menga sira uchramas u barno.
Andisha qiluvchi yurtu eldan
Yori ila o'ltirolmas aslo.
Shod ul kishining dili hamisha,
Dildor ila ayshi bo'lsa barpo.
Bir noz ila ov qilishga dilni,
Gul uzra binafsha bo'ldi oro.
Hofiz, shu ko'ngilli dam g'animat
Asbobi tarab bori muhayyo.

* * *

Saharda bulbul arz etdi saboga,
Gul ishqini netdi, deb biz benavoga.
Erurman nozanin ehsoniga qul,
Qilur u yaxshi ish ketmay riyoga.
Xayrli bo'lsin unga tong shamoli,
Davo qildi tun uyg'oq bedavoga.
Sira begonalardan nolimasman,
Na bo'lsa - yetdi do'stdan oshnoga.
U sunbul zulfi guldani parda ochdi,
Tugundan g'uncha chiqdi sof havoga.
Yuzu rangin ko'rib, qon bo'ldi ko'nglim,
Duchor o'ldim tikan otlig' baloga.
Qilur har joyda bulbul ohu afg'on,
Maza bu o'rtada bodi saboga.
Kutib sultondan ehson yanglishibmai,
Jafo ko'rdim yalingach bevafo.

Borib may sotquchiga xush xabar ber
Ki, Hofiz yurmagay endi riyoga.

* * *

Bilsangki, changu ud nelarni qilur bayon,
Ta'zir etilmayin desang, ich bodani nihon.
Eltarlar ishq nomusin, oshiqning ravnaqin:
Yoshlarni aybu cholni qilib ta'naga nishon.
Derlar: bu sevgi sirin eshitmang-u, so'zlamang,
Mushkul hikoyadurki, qilurlar uni bayon.
Biz tashqarida aldanamiz makru hiylaga,
Parda aro ular nima tadbirda bu zamon.
Piri mug'onni vaqtin olib, tashvish orttirar,
Ko'rgil, murid pirga na qilmoqchidir bu on.
Yuz dilni bir boqish ila mumkin sotib olish,
Xo'blar tag'oful ayladi bu haqda har qachon.
Bir qanchalar urinsa tilab yor vaslini,
Taqdir ishi, degay, uni bir qanchalar hamon.
Bo'l ehtist, inonma, bu olamda yo'q sabot,
Har damda o'zgaruvchi bir ishxona bu jahon.
May ichki, shayxu Hofizu muftiyu muxtayeib
Aldarlar, anglasang, ko'rinur makrlari ayon.

* * *

Dilim olg'ach, yuzini qildi pinhon,
O'yin qilmas bu xil do'stga qadrdon.
Meni yolg'iz topib, qasd ztdi jonga,
Xasli qildi menga katta ehson.
Boshim bo'ldi og'ir nargislaridan,
Nega dil bo'lmasin lola kabi qon?
Sabo, gar chora bo'lsa, vaqti - ko'rsat,
Bu mushtoqlikni tortib, bitdi darmon.
Meni bir sham'dek kuydirdi, menga -
Surohiy yig'lab, etdi cholg'u afg'on.
Demak mumkin emas hech mehribonga
Bu xil so'zlar, bu xil ish qildi jonon.
Qilolmas bunday ish Hofizga dushman:
Qachon yo(y) qoshlar otsa tiri mujgon.

* * *

Ul kimki, ehson yo'lidan menga vafodorlik qilur,
Mendek yomonlik o'rniga, bir lahza g'amxorlik qilur.
Soz aylab avval nag'mani, dilbar so'zin menga degay,
Ul dam sunib bir kosa may, menga xaridorlik qilur.
Dilbarki, jonim yoqdi u, kuttglimga to'lgan orzu,
Budir umid - ul javrjo', shoyadki, dildorlik qilur.
Dedim: Yurakda g'am tugun, zulfing yana aylar zabun.
Dedi: Men aytdim, shul uchun ul senga tarrorlik qilur.
Ul malla to'n kiygan dag'al, sevgi ishidan bexabar:
Ber unga mastlikdan xabar, to tarki hushyorlik qilur.
Mushkul topishlik oshno, mendek nishonsiz bir gado,
Sulton qachon ko'rib ravo, rindlar-la mayxorlik qilur.
Mayli, necha ko'rsam sitam, ul jingalak sochdan bu dam,
Zanjir zulfidan, ne g'am, har qancha ayyorlik qilur.
Ul ko'zda ko'p nayrang bor, Hofiz, hech etma ixtiyor,
Tundek qaro sochli nigor har turli makkorlik qilur.

* * *

Sarvi ravonim ne uchun qilmaydi hech mayli chaman?
Bo'lmaydi hamdam ul bilan, yodiga kelmaydur suman?
Ko'p vaqt erur daydi dilim bog'landi-ketdi zulfiga,
Ushbu uzoq sayridan u qilmaydi hech azmi vatan.
Yo qoshlarin qarshisida qancha xushomadlar qilay?
Bermaydi hech so'zga quloq, doim tag'oful qildi fan.

Garchi binafsha zulflar to'zdi shamol ila bu choq,
Ko'nglim uning yodi bilan qaytmaydi hech o'z ahdidan.
Yog'di etaklardan gulob, hayron erurmankim, sabo
O'tgan yo'lin tufroqlarin qilmas nega mushki Xo'tan?
Loyiq ko'rib soqiy agar sunsa to'la kosa zahar,
Kim may kabi ichmas uni, bo'lmay og'iz jonu badan?
Ruxsori orzusida dil jon birla hamdam bo'lmadi -
Tan xizmatin qilmaydi hech, jondir uning shavqi bilan.
Men zulfidan qildim gila, hiyla yo'li-la u menga
Dediki: Bu egri qora olmas so'zimni hech qachon.
Tortg'il qo'ling, qilma jafo, oqmish ko'zimning yomg'iri -
Ko'z yoshlarim qilmay madad, bo'lmaydi hech durri Adan.
G'amzangga bo'lmishdir fido, Hofiz o'gitni tinglamay,
Tig' ila o'lmakka sazo har kimki so'z uqmas ekan.

* * *

Domlalar minbar uza so'z qilsa takror o'zgacha,
Aylagay xilvatda turli fitna bedor o'zgacha.
Ushbu majlisning bilimdoniga bor mushkul savol:
Tavba berguchiga tavba ne uchun or, o'zgacha?
Mildir o'z eshshaklariga yangi boylarni bu choq,
Qul xachirga faxr etib, noz aylar izhor o'zgacha.
Xonaqohning soili, kel, o'tparastlar dayrida
Bir qadah-la dilni ayla boyu dedor o'zgacha.
Husni bepoyoni qancha oshiqin qilsa halok,
Yangi oshiqlar kelib, bo'lgay giriftor o'zgacha.
Dod shu gavhar bilmagan sarroflarning dastidan -
Kim, eshakmunchoqni dur dsb, qildi bozor o'zgacha.
Arshdan tong chog'ida keldi tovush, aql unga der:
Yod olur ko'kda malak Hofizdan ash'or o'zgacha!

* * *

Go'zal gul chog'i yashnar tog'u cho'llar,
Kerak bu chog'da bo'lsin qo'lda sog'ar.
Ko'ngilni aylagil bir lahza xursand,
Sadafda doimo bo'lmaydi gavhar.
G'animat bil - guliston ichra may ich,
Ikkinchi hafta gulning holi digar.
Qiziq sevgi yo'likim, ushbu yo'lga
Bosh urganlarda bosh qolmaye muqarrar.
Menga hamdars esang - yiqqil varaqni,
Bu ishq ilmuni bildirmas u daftar.
Ushanday yorga dil bog'lagilkim,
Jamoli bo'lmasin muhtoji zever.
Kel, ey shayx, boda ich g'amxonamizda,
Uyalsin ushbu maydan havzi Kavsar.
Qizil may birla oltin jomni to'ldir,
Bag'ishla kimki ehsoningni istar.
Xudo haqqi, kumush tanli butim bor,
Bu xil but ko'rmagandir balki Ozar.
Desa Hofizni she'rin kimki yanglish,
Yetishmas aqli: nedir toza gavhar?

* * *

Bu kecha maykadada bazmu aysh farovon edi:
Xurushda soqiyu kunduz kabi charog'on edi.
Emasdur ishq so'zi ovozu harfga hech muhtoj,
Xuro'shga solg'uchi nay, daflar etgan afg'on edi.
Bu telbalar yig'inida na o'tsa bahsu javob,
U madrasa haqida qilu qolu doston edi.
Ko'ngil quvonchda edi soqiynipg karashmasidan,
Bu baxt qaytmog'i bir oz ko'ngilga armon edi.
Aniqladim: u ikki mast jodu ko'zlarni
Sehrchi somiriyning mingi banda farmon edi.
Dedimki: Menga labingdan havola qil bo'sa,

Kulib dediki: Qachon bizda buncha bo'lg'on edi?
Aniqki, baxtu saodat menga yuz ochdi kecha -
Oy ila yer yuzi bir-bir bilan gilaxon edi.
Ul oy labi edi Hofizni dardiga darmon,
Karam chog'ida biroq do'stiga kamehson edi.

* * *

Men nomoz ichra shu qayrilma qoshing etdim yod,
Bo'ldi bir holate - mexrob ham etdi faryod.
Endi, dil, shodligu sabrni mendan kutma,
Sabru oromki, ko'rgan eding - o'ldi barbod.
Boda - xo'b, toza chaman, qushlari bo'lmishlar mast,
Ishq eli davri kelib, bo'ldi hama ish bunyod.
Yaxshilik islari kelmoqda jahonda menga ham:
Gul quvontirdi meni, bodi sabo ayladi shod.
Ey sevinchlar kelini, qilma zamondan hasrat,
Pardalar tut, bezat uyniki, kelibdur domod.
Dilni band etgan o'simlik bori ziynatlanmish,
Yorimiz husni erur aslida ham shuncha ziyod.
Uzining yuklari ostida qolib barcha daraxt,
Xayriyat, g'am yukidan sarv bo'libdir ozod.
Uqi, ey cholg'uchi, Hofiz g'azalin yaxshisini,
Toki avvalgi quvonchli chog'imi aylay yod.

* * *

Qo'l tortmagum tilakdan lutf ztmaguncha dilbar,
Yo jon ketar tanimdan, yo vasl bo'lur muyassar!
Ulgach, ochib mazorim, boqqil o'lik tanimga,
Bag'rim yonib, kafandan ko'kka chiqar tutunlar.
Ko'rsat yuzingni, jonon, tang qolsin ahli olam,
Och labni - er-asllar qilsin fig'on barobar.
Jon labga keldi, ko'ngul hasratdadir labingdan,
Maqsadga vosil o'lmay jon chiqmog'i muqarrar.
Og'ziigni shavqi birla qiynaldi xasta jonim,
Yo'qsillar ul og'izda hech yod etilmagaylar.
Yed aylasa oshiqqlar yaxnsh sifatlarini,
Har yerda, har yig'inda Hofizni nomi yangrar!

* * *

Umrin yuzingni nuri bilan doimo bahor,
Kel, kel, yuzingsiz o'ldi xazon ushbu lolazor.
Bir zarra tashvish etmas o'limda u kimsakim,
Topgan esa labing mayidan umriga mador.
Loyiq agar ko'zimdan oqar sel bo'lib yoshim,
Jonim yashin kabi g'amu dardingda beqaror.
Beumr men tirikman - ajablanma bunga hech,
Kim ayriliqni umr debon berdi e'tibor?
Poylaydi har tarafda falokat qo'shinlari,
O'tmakda umr, qolmadi ilgingda ixtiyor.
Diydor agar bir-ikki nafas bo'lsa muddati,
Bir yo'lni topki, umri aziz o'tmagay bekor.
Mayxo'rlik ila tong chog'i uyqu qachongacha?
Uyg'onki, umr o'tib boradir olmayin qaror.
Sur'at bilan o'tar edi, boqmasdi qayrilib,
Umr o'tdi-yu, dil o'lmadi bir zarra baxrador.
Hofiz, gapir, bu olamaro so'z durini soch -
Dunyoda qolg'usi qalamingdan shu yodgor.

* * *

Ey sabo, yor hididan ruhi ravonimni ketur,
Xastaman qayg'u bilan - rohati jonimni ketur.
Tilak oltinlariga to'ldir bu yo'qeil dilni,
Ya'ni do'st dargohidan yaxshi nishonimni ketur.
Muntazir ko'z uiga, ko'nglimda urush etdi davom.

Qosh ila g'amzasidan o'qu kamonimni ketur.
Kimsasizlik g'ami ham hajr bilan keksaydim,
Tez menga boda to'la jomi javonimni ketur.
Inkor etguchiga sun bir-ikki jom bu maydan,
Istamas bo'lsa, menga ruhi ravonimni ketur,
Soqiyo, ertaga qo'yma bu kun ayshin zinhor,
Yoki taqdir qo'lidan xatti amonimni ketur.
Qolmadi dilda qaror ilgaridan. Hofiz der:
Ey sabo, yor hididan ruhi ravonimni ketur!

* * *

Turgil, oltin kosani may quyib, obod ayla,
To'lajak bosh kosasi tuproq ila - yod ayla.
Oxiri manzil ekan bizga shu jimlik vodiy,
Yeru osmonga solib g'ulg'ula - faryod ayla!
Shu boshing hurmati, ey sarv, gar o'lsam tuproq,
Nozni qo'y, soya solib, tuprog'imi shod ayla!
Dilga yetgan sening ul zulfing ilonidan alam,
Qil labing unga shifo, dardidan ozod ayla!
Ko'z yoshim birla yuvindim, bunga der darveshlar:
Tozalan avval o'zing, pokni keyin yod ayla!
Yo Rab, ul zohidi injiqki, ko'rur aybni faqat,
Fahmu idrok yo'lga uni irshod ayla.
Fikri iflosning ko'zi tushmas ul jonon yuziga,
U go'zal yuzni diling nok tutib yod ayla.
Guldek ul guL isidan tunni qabo qil, Hofiz,
Tunni poyandozi ul qomati shamshod ayla.

* * *

Bu jahon gulshanidan ul yuzi gul ra'no bas,
Bu chamanda u qadi sarvi ravon tanho bas.
Tilagim ahli riyo yeuhbatidan bo'lmoq uzoq
Ham yoqimsiz kishidan menga qadah sahbo bas.
Qilmishingga yarasha bergusidir jannatni,
Biz gado - rindga mug' dayridagi ma'vo bas.
Bir arig'ning labida o'ltir-u, ko'r umr o'tishin,
Dunyo qanday o'tishiga shu qadar imo bas.
Boq jahon holiga ham ko'rgil uning ozorin,
Senga kam bo'lsa, menga foyda-ziyon savdo bas.
Yor men birla erur - boshqa na bo'lsin tilagim,
Davlati bazmi agar bo'lsa ko'nguloro bas.
Quvma, Tangri haqi, jannat sari dargohingdan,
Ostonang menga borliqdan erur a'lo bas.
Menga yolg'iz seni vasling-u, yo'q o'zga havasim,
Ayladim ikki jahon moli bilan savdo bas.
Hofiz, o'z taqdiridan ranjimak insofsizlik,
Men uchun tab'i ravon-u, g'azali zebo bas!

* * *

Tol osti, suv labida she'r ila oldingda yor o'lsin!
Ham ulfat dilbari shirin-u, yori gul'uzor o'lsin!
Ayo, ey baxt ila davlat, shu davlat qadriga yetgil,
Muborak bo'lsin ayshing, ham bu damlar poydor o'lsin!
Kelin tab'imga nozik fikr durru gavharin taqdim,
Zamona boqsa - bo'ynimda ilondek zulfi yor o'lsin!
G'animat angla suhbat tunlarin, bo'l doimo dilxush,
Ochilmish lola, oydin tunda ishrat barqaror o'lsin!
Nechuk maydur u soqiy ko'zlarining kosasi ichra -
Ki, oqillarcha mast etsin, shirin unda xumor o'lsin!
U odamlarki, bir dilbarning ishqin dilda saqlabdir,
Degil: isriq tutatsin, ko'zlaguchi sharmsor o'lsin!
O'tibdir umr, ey Hofiz, kel, etgil, azmi mayxona,
Ish o'rgat mastlarga - yaxshi ishlarda baror o'lsin!

* * *

O'z baxtimizni biz sinadik bu shahar aro,
Tortib olish kerak - u yotar xavfli jar aro.
Barmoqni tishlab oh chekarman, shuning uchun
O'tlar yoqildi gul kabi jonu jigari aro.
Xush keldi menga tundagi bulbulning xonishi,
O'z shoxlarini chirmadi gul barglar aro.
Shod o'lgil, e ko'ngilki, u nozu itobli yor
O'z baxtidan itobda qolur bu shahar aro.
Dunyoda hech mashaqqat, azob tortmayin desang,
Ahdningda tur, so'zingni botirma zahar aro.
Betinch qiluvchi hodisa cheksa falakka bosh,
Taqdirin ongli kimsalar otmas zarar aro.
Hofiz, agarda vasl abadiy bo'lsa barqaror,
Qolmasdi Jamshid taxtidai ajrab, xatar aro.

* * *

Ajab Sherozkim, yo'qdir misoli.
Xudoyo, bo'lmasin hargiz zavoli!
Bu Ruknobod yeuvi tahsinga loyiq,
Berur Xizr umrini salqin zuloli.
Musallo, Ja'farobod orasida
Esar mushk ila anbardek shamoli.
Kelib Sherozga, ol fayzu sharaflar,
Juda ko'pdir aziz sohibkamoli.
Kigaida Misr qandin yod etarga
Shirinlar oldida qolmas majoli.
Sabo, ul sho'x go'zal, mastlar haqida
Ne bilgaysan, nechuk onlarni holi?
Meni bu uyqudan uyg'otmangiz hech,
Dilimni shod etar shirin xayoli.
Agar ul sho'x bola qonimni to'ksa,
Onasining sutidek qil haloli.
Agar hajridan etsang xavf, Hofiz,
Nechun shukr etmading vaqti visoli?

* * *

Misoli tongsan-u, men sham'dek bo'libman ado,
Kulib qarar, nechuk etgum bu jonni senga fido.
Shu zulfing o'ldi sabab - tushdi dilga har neki dog',
Go'rimdan ungusi o'lsam binafsha birla hino.
Umid ostonida ko'z eshigin ochgan edim,
Bir aylading nazar - olding ko'zim qarosida jo.
Nechuk shukr qilay, ey g'am seli, kechirsin Haq
Ki, mendan lmas eding kimsasiz chog'imda judo.
Ko'zim qarochig'iga qulman - unga dil dardin
Degach hamisha u ming tomchisini qildi davo.
Nigorim ayladi jilva hama nazarga vale
Karashmasini ko'rolmaydi kimsa mencha raso.
Shamoldek o'tsa yorim qabrim ustidan Hofiz,
Kafanni shavq ila albatta yirtaman go'raro.

* * *

Kel, endi gul sohib har yon, qadah qo'lda o'turgaymiz,
Buzib charx eski tomin, yangi bir tarh ila qurgaymiz!
Agarda tortsa g'am lashkar to'kishga ishq eli qonin,
Men-u soqiy bo'lib birga, bu tashvishni bitirgaymiz.
Erur qo'lda go'zal cholg'u - yoqimli kuyla, sozanda,
O'qub she'r-u, oyoq raqsini avjiga keturgaymiz.
Sabo, elt jismimiz gardin u yuksak oston sori
Ki, shoyad xo'blar shohi yuzin bir bora ko'rgaymiz.
Biri aqlidan urgay lof, biri doim to'qir yolg'on,
Kel, arzu dodimizni endi hokimga gapurgaymiz.
Agar jannat tilarsan, biz bilan mayxonaga yurgil,
Seni xumning tagidan havzi Kavsarga yeturgaymiz!

Qadahni to'ldirib lim-lim qizid gul singari maydan,
Sochib atr, ud tutatgaymiz, ulug' bir bazm qurgaymiz.
Ksl, ey jonon, yuzing nuri bilan majlisni porlatgil,
Qoshingda she'r o'qub bu dam, oyog'ingga bosh urgaymiz!
Bilimdonlik va xugixonlik emas Sherozda hech manzur,
Kel, ey Hofizki, biz yuzni bo'lak yurtga o'gurgaymiz.

* * *

G'ariblik tunida hamdam ohu faryodim,
G'ariblik g'amu hasratlaridir ijodim.
Diyoru yor xayolida zor yig'larman,
Safar otin yo'qotish bo'ldi fikr ila yodim.
Raqib yurtidan ermas, u yor elidan men,
Rafiqalarimga yetur - mehribon qil imdodim.
Xudo uchun menga, yo'lboshchim, ayla endi ko'mak
Ki, maykada aro shuhrat-la aylasin yodim.
Agarchi keksaman, ammo havas bunga boqmas,
Yana u yosh pari ishqiga bo'ldi irshodim.
Meni sabo shamolidan bo'lak kishi tanimas -
Havodan o'zga na ulfat, na do'stu hamrozim.
Hayot suvi kapidur yor manzilin shavqi,
Sabo, ketur menga Sheroz isin - qil imdodim.
Ko'zim yoshi to'kilib yuzga, sirrim ayladi fosh,
Hamisha men ila g'ammoz xonabarbodim.
Dsr erdi chang cholib Zuhra yulduzi tongda:
Go'zal tovushli, shirin so'zli Hofiz ustodim.

* * *

Menga yetkurdi qisqaqo'llik ozor,
Baland ostonaliklar tutdilar xor.
Magar tutgay qo'lim bir zulfi zanjir,
Bosh urgum yo'qsa shaydolikka nochor.
Falakning holini so'r ko'zlarimdan,
Kechar yulduz sanab tunlarda bedor.
O'parman jom labini shu uchunkim,
Tiriklik sirridan qildi xabardor.
Qo'lim kuchsizligidan shod erurman:
Yetishmas bir kishiga mendan ozor.
Duo qilsam agar may sotquchini,
Ne bo'lg'ay, marhamatga shukr darkor.
Meni yerdan ko'tarmaysan, agarchi -
Yosh o'rnida qilursam gavhar isor.
Bu dashtda qo'yma yirtqich deb menga ayb,
Olur ta'limlarim ohuyi totor.
Boshim Hofiz kabi mastdir va lekin
U boshliq lutfidandirman umidvor.

* * *

Men emasdurman u rind - tarki mayu dildor etay,
Muxtasib bilgay, bu ishdan mumkin ermas or etay.
Lola jom ushlab, bo'tako'z mast, biza fosiq - ot,
Dardlarim ko'n - qaysi hokimga uni izxor etay?
Maykada - daryo-yu, sevgi - gavxar-u, izlovchi - men,
Bunda bosh egdim, shu holda qaygacha isror etay?
Garchi tuproqqa qorildim, himmatim qo'ymas meni:
Ko'z bulog'idan to'kib suv, qancha oxu zor etay?
Hay'atim misli gado - u qo'lda sulton xaznasi,
Charx ehsonidan o'zni qanday ummidvor etay?
Bu falakning axd ila paymonida yo'q e'tibor,
Ahdni jom ila tuzib, may shartini takror etay.
Tort jilovni, tur bir oz, qo'zg'atma, jono, jilvalar,
To yo'lingga ko'zni durru gavharin isor etay.

* * *

Men uchun hech loyiq ermas erdi rindlik shevasi,
Tushgach ushbu holga, nechun, o'zgalardan or etay?
Tavba qilg'onlarni doim ayblab yurgan esam,
Gul chog'i, devonamanmi, bodadan inkor etay?!
Ko'z yoshi yoqutu- la'lidan xazinamdir to'la,
Bas, quyosh fayzu zarini ne uchun darkor etay?
Qoshlaring mehrobiii baxtimdan aylarman tatab,
Unda Majnun yanglig' ishqing darsini takror etay.
Ushbu lablar ishva aylar erdi Hofizga mudom,
Ne uchun afsonaga bovar qilar, iqror etay?

* * *

Tong otdi, soqiy, jomni liq-liq sharob qil.
Charx aylanishga hech bir ishonch no'q - shitob qil.
Foniy jahon xarob o'ladur, undan ilgari
Gulrang bodalar bila bizni xarob qil!
Xurshidi may chiqardi boshni shisha sharqidan,
Quvnoq bo'lishni istar esang, tarki xob qil.
Ul kunki, loyimizni falak ko'za aylagay,
Albatta. boshimiz kosasin liq sharob qil.
Biz lofu tavba parhez etuvchi kishi emas,
Toza sharobu jom ila bizga xitob qil.
Och ko'zni, yaxshi boq: ko'piribdir qadah yuzi.
Dunyo asosini shu ko'pikdek hisob qil.
Gul mavsumi-yu, umr o'tishga shoshildilar,
Gulrang mayingni sungali soqiy, shitob qil!
Hofiz, eshitki, mayga topinmoq erur savob,
Tur, vaqtini qochirma-yu, tezda savob qil.

* * *

Etdim tabibg'a g'amlarni chandon,
Miskin g'aribga qilmaydi darmon.
Har dam tikonning qo'lida bo'ldi
Bulbulga boqmay gul yuzli jonon.
Biz dardimizni dilbarga aytdik,
Yo'qdir tabibdan yoshrishga imkon.
Do'stlar yuzini ko'rsin yana do'st,
Ye Rab, omon tut, qil lutfu ehson!
Ishq sandig'iniig qulfi buzilmish,
Yetkuzmasin qo'l ag'yori nodon.
Ey yor, vasling ne'matlaridan
Bizga nasiba afsusu armon.
Bo'lmasdi Hofiz dunyoga shaydo,
Dono so'zini olganda har on.

* * *

Yana rindlar sari bir ayla nazar yaxshigina,
Yana mayxona tomon ayla guzar yaxshigina.
Meni xaqqimda labing shul qadar etgan ehson,
Juda ham yaxshi bir oz oshsa agar yaxshigina.
Ey jahonning chigalin yechguchi dono odam,
Fikr ber, ayla bu ishlarni basar yaxshigina.
Dedi nosihki: Nedir ishqda g'amdan o'zga?
Dedim: Ey mullai g'ofil, shu hunar yaxshigina!
Gar desam senga qadah ol-u, piyola labin o'p,
Mendan o'zga bera olmas bu xabar yaxshigina.
Terib olgil, beradur mevaki, Hofiz qalami,
Yo'q bu bog' mevasida bundan o'tar yaxshigina.

* * *

Qorong'umizni eshikdan kirib munavvar qil,
Shu majlis ahli dimog'ini ham muattar qil.
Dilu jon etdim u jononni qosh-ko'ziga fido,
Kel, ey nigor, tamoshoyi toku manzar qil.

Shu husn ila shu go'zallikki, senda bor, kelgil,
Faqirlar ayshiga jon kirgizib, tavongar qil!
Bihisht xoziniga ayt, bu bazm tuprog'ini
Bihisht ichra olib bor-u, udi-anbar qil.
Visol naqdin umid aylamoqqa yo'qdir hadimiz.
Labingga izn berib, komimizni shakkar qil.
Chaman go'zallari husningga bo'ldilar maftun.
Sumanga noz-u, qading bandasi sanobar qil.
Bu hajr oqshomi yulduzlari yorug' bermas.
Chiq endi tom uza - oy sham'ini munavvar qil!
Hikoyat aylar o'ziga bino qo'pib soqiy,
Ishingni buzma, xayoling sharobu sog'ar qil.
O'pib piyola labin, mastlarga sun o'sha dam,
Aql dimog'ini shu lutf ila muattar qil!
Nasihah etsa, may ichmang, der ersa donishmand,
Piyola sungil-u, etgil: tomog'ingni tar qil!
Yuzingni shu'lasidur sezgi ko'ziga parda,
Quyoshni chodiriga bas kelib, munavvar qil!
Nigor ishratu ishqin bajo ketir, so'ngra
O'zingga Hofizi Sheroz she'rin az bar qil!

* * *

Bu jandapo'shlar ila bo'lma hamdam,
O'girma rindlardan yuzni har dam.
Erur bu janda to'n g'oyatda iflos,
Erur pok mayfurush ko'ngli, dili ham.
Qilursan mastlik, yoshrin o'turma -
Ichirding boda, yutdirma zahar ham.
Chidolmaysan - tanang g'oyatda nozik,
Hazar qil - malla to'nlar mushti bardam.
Erur bedard bu so'fiynamolar,
May ichganlar bo'lishein shodu xurram!
Labi maygun-u, mastona - ko'zing och,
Sening shavqingda may qaynar damodam.
Kelib bu hiylagarlar yolg'onin ko'r:
Qadahning bag'ri qon, cholg'uda motam.
Hayiq Hofizdagi o'tli yurakdan,
Qozondek ko'ksi qaynar, ko'nglida g'am.

* * *

Xo'blar shahi, bir boq - bu gadoyingai rizo qil,
Kuygan bosh-oyoqsizga karam ayla, vafo qil.
Bir boqmog'ing orzusi bu yo'qsil dilidadir,
Boq g'amzadaga: mast ko'zing och - ramzu imo qil.
Bahslashsa go'zallikda jamoling-la to'lin oy,
Ko'rsat yuzung-u, xalqqa tanit, yuzi qaro qil.
Ey sarvi ravon, bir nafase bog'u chamandan
Bazm ichra kelib deki: to'ning yirt-u, qabo qil!
Parvonavu sham'u gulu bulbul yig'ilibdur,
Yolg'uzlama, jono, kelib ayshimni raso qil!
Dil berguchiga tokay o'lur jabru jafolar,
Bir ayla vafo Tangri uchun, tarki jafo qil!
Tangri haqi, dushmanlaring ig'vosin eshitma,
Hofiz kabi o'z yo'qsilingga lutfu ato qil!

* * *

Dilim zulfing uchida tutdi maskan,
Quyi solma, sinur, dilbarlik et fan.
Agar zulfing kabi tortsa ko'ngul bosh,
Qo'lingga ol, oyoqqa solma boshdan.
Agar tunda kelur bo'lsang charog'dek,
Ko'zim bo'lgay jamoling birla ravshan.
Guliston endi menga zavq bermas,
Yuzingni ko'rsam - olam menga gulshan.
Qading sarvini vasfiga tutinsam,

Tanim bori til o'lgay misli savsan.
Qachon qo'ngay shakar solgan idishga,
Chibin andisha qilsa yelpig'ichdap.
Qilolmas ishqbozlik mojarosin
Jahonda kimsa Hofizdek muayyan.

* * *

Ey ko'zlarimni nuri, eshitgil so'zim bu dam,
Ichgil to'liq piyolani, ber so'ngra menga ham.
Aytdimki, tajriba bila so'zlaydi keksalar,
Tingla nasihat, o'g'lim-u, bo'l piri muhtaram.
Esluk kishi oyog'iga ishq urmadi kishan,
Oshiq bo'lishni istasang, aqlingni ayla kam.
Bermaydi mastlik kayfini tasbehu malla to'n,
Bu ishda may sotuvchiga bo'yningni ayla xam.
Jon birla molni do'st qilur do'stga fido,
So'z tinglaguchi yorga yuz jonni bersa kam.
Sevgi yo'lida devlarnig ig'vosi ko'p erur.
Aqlingga kel, xato sariga qo'ymagil qadam.
Sarg'aydi bargu qolmadi shodlikni cholg'usi.
Tosh, ayla nola, doira, g'avg'oni ayla zam.
Bo'lsin hamisha toza maning jom ila to'la,
Soqiy, sharob qoldig'ini bizga qil karam.
Zarbof to'n ichra mastlik ila tushsa gar yo'ling,
Nazr ayla bo'sa Hofizi eski choponga ham.

* * *

Xirqamni garov qo'ygum - bir kosa sharob avlo!
Bema'ni nasihatdan menga mayi nob avlo!
Har qanchaki ko'z tutdim - behudaga umr o'tdi,
Bas, menga faqirlik-la bir kunji xarob avlo!
Zohidni yurak sirtin xalqqa demagayman xech,
Bu qissani aytmoqqa chang ila rubob avlo!
Shunday falak axvoli: bosh ham so'nggi yo'q, bundan -
Soqiyning xayoli-la qo'llarda sharob avlo!
Bir sen kabi dilbardan ko'nglimni uzolmasman,
Sendan bosh agar tortsam, bo'ynimga tanob avlo!
Keksayding, ayo Hofiz, tark et mayu mayxona,
Yoshlikda xdvaskorlik, rindlik, mayi nob avlo!

* * *

Sen, ey zohid, o'z orzuying sari bor,
Mening ham xuddi shunday maqsadim bor.
Qadah bo'sh doimo lola qo'lida,
Kel, ey soqiy, ketur har narsaki bor!
Meni tort endi devona safiga,
Shu mastlik yaxshidur bo'lguncha hushyor!
Hazar qil mendan, et, ey so'fiy, parhez,
Ki parhezdan qilibman tavba ming bor.
Kel, ey ko'ngil, uning zulfiga bog'lan,
Xalos bo'lmoqqa gar bo'lsang havaskor.
Qo'yib tur tavbani gul mavsumida,
Davom etmas - o'tar gul fasli nochor.
Chaman atrofidan yel o'tganidek,
Umrning ko'klami o'tmoqda, ey yor.
Kel, ey Hofiz, eshit achchiq nasihat,
Nechun g'aflatda o'tsin umr bekor.

* * *

Bu yurt to'la harifdir, har bir tarafda dilbar,
Qo'shgaysiz ishqqa hissa, ishlang bu haqda, do'stlar!
Charx ko'zi ko'rgan ermas bundap qiziq harifinn.
Hech ovchi qilmagandir bunday bir ov musaxxar.
Bog' ichra barcha guldun husn ila nozaninsan,

Pok etaginga aslo yopishmasin tikanlar!
Kimning ko'zi ko'ribdur, kim jondan ishlagan tan,
Gard yuqmagan taniga bir yori hur paykar.
Mendek dili yarimni quvding nega yoningdan?
Bo'lgaymi bo'sa yoxud quchmoq menga muyassar?
Tez kel, ko'ngil ochar may, shodlik nafas g'animat,
Kelgusi navbahordan kimda umidu bovar?!
Bo'stonda tengu to'shlar gul birla lola yanglig',
Har birlari tutib jom, yor ismi tilda az bar.
Gar bu tugunni yechsam, bu sirni fosh qilsam,
Ishlar chatog'-u, dardlar ezmakda to barobar.
Hofiz tanida har tuk ul sho'x nari qo'lida,
Mushkul turish bu yanglig' bir yurtda, e birodar!

* * *

Bo'ldi yana gul birla chamanlar bihishtoso,
Gulgun may ila jomni to'lat, soqiyi zebo!
G'am zangini dildai yo'qotar ushbu qizil may,
Qutlar edi bu so'zni baland tab'li dono!
Man' aylaguchi may qovog'in tosh bila ursa,
Sen xisht ila yor boshini - rahm aylama aslo!
Ongsizligimi - ilmingga boqmaydi falak hech,
Chunki ko'zi yo'q: yaxshi-yomon unga muammo.
Hur ila bihisht naqd bo'libdur menga, zohid,
Nechun qilayin nasya hikoyat sari parvo?
Ul xoja kamol ahlidur, aylab yo'lini pok,
Oltun yo'q esa, xisht-la yo'lin bergumiz oro.
Tarsobachaye kechagina derdiki: Hofiz,
Afsuski, butxona aro ayladi ma'vo.

* * *

Ey bod, nishoni yor erursan,
Dilbar soridan chopor erursan.
Zinhor qo'lingni cho'zma, saqlan -
Zulfin silab, aybdor erursan.
Ey gul, yuziga ne nisbating bor?
U mushku tikanga yor erursan.
Rayhon, nimasan, qaro xatin ko'r:
U toza-yu, ssn g'ubor erursan.
Nargis, qanisan, u mast ko'zlar
Kayfin surar-u, xumor erursan.
Ey sarv, u baland qad oldida sen
Bog' ichra kame'tibor erursan.
Ey aql, uning ishqiga berilding,
Bu choqda beixtiyor erursan.
Hofiz, senga vasl o'lur muyassar
Gar sabrda barqaror erursan.

* * *

Umid ila ming urindimki, yor bo'lsang deb,
Bu beqaror dilimga qaror bo'lsang deb.
Kel endi ishq eli g'amxonasiga - budir umid,
Bu g'amli ko'nglima shoyad mador bo'lsang deb.
Tilayman uyquasi yo'q ko'zlarim charog'i bo'lib,
Umidli ko'nglima hamdam nigor bo'lsang deb.
Menga yarim kechada uyqudan murod shudir,
Ko'zim yoshi kabi ko'kraktumor bo'lsang deb.
Yurak aqiq labing ishvasi bilan qondur,
Shikoyat aylar esam, g'amgusor bo'lsang deb.
Malohat iqlimi shohini qulgadur nozi,
Bu ishda sendan umid - sulhkor bo'lsang deb.
Vazifa aylading ikki labingdan uch bo'sa,
Vazifani qil ado: Ol, xumor bo'lsang! - deb.
Go'zallar ishq elini qo'llagan chaman ichra,
Umid ila boqaman menga yor bo'lsang deb.

Shaharda Hofiz o'lub, arzimasman arpaga ham,
Karamlaring kutaman g'amgusor bo'lsang deb.

* * *

Bordim saharda bog' sari gul terish uchun,
Nogoh quloqqa keldi - chekar erdi bulbul un.
Bir gulning ishqiga u bo'lib men kabi acir,
G'avg'o qilar emish bu chamai ichra ushbu kun.
Sayr aylar erdim ul chamanu bog' aro faqat,
Uylar edim u bulbulu gul haqqida butun.
Gul yor etib tikonni-yu, bulbulda yo'q qaror,
Na gulda o'zgarish, na u bulbuldadir sukun.
Bulbul fig'oni qildi dilimga og'ir asar,
Qaytdim, chidolmadim juda holim bo'lib zabun.
Gulshanda gullar ochilar - aslo hisobi yo'q,
Qo'ymas tikan balosi biror gul uzish uchun.
Hofiz, suyuggch umidini tutma zamonadin,
Ming ayb bor, fazilatidir makr ila fusun.

* * *

O'tparast dayrida ham men kabi yo'q bir maftun,
Bo'ldi har joyda garov xirqayu daftar may uchun.
Ayladim boda sotuvchi qo'lida ming tavba:
Yorsiz tomchi may ichmay, demayin bazmu o'yin!
Borladim ko'z arig'ini etagim birla agar,
Koshki yonimga o'tirtilgusi sarvi mavzun.
Balki bu sir haqida sarv tili so'zlag'usi,
Yo'qsa parshishda til yo'q, o'zi g'oyatda zabun.
Menga boda kemasin tezda ketur, dilbarsiz
G'amdan oqmoqda ko'zim burchida nahri Jayxun.
Qilma begona so'zin yorga topinguchi menga.
Yo'q ishim o'zga bilan - menga piyola may sun!
Ranjima, nargis agar kulsa ko'zing shevasidan,
Yurmagay ko'r izidan kimki, ko'zi bo'lsa butun.
Juda yoqmish bu so'zim - tong chog'ida bir tarso
Maykada oldida nay, daf ila kuylardi bugun:
Gar musulmonlik esa Hofiz tutib turgan ishi,
Oh agar bo'lsa bu kun orqasidan tonglasi kun!

* * *

Ey podshohi xo'bon, yolg'izlik g'amidan dod!
Qiyaldi g'arib ko'nglim, kel, ayla g'aribing yod.
Darding menga darmondir navmidlik yotog'ida,
Yoding menga hamdamdir hajr aylar esa bedod.
Mushtoqligu ayriliq bir holga keltirmishkim,
Sabrim etagi qo'ldan ketdi-yu, ko'ngil barbod.
Bo'ston guli har doim yashnab, ochilib turmas,
Munglug'lar dilin ovla, davring ekan et imdod.
Yuz bodi sabo bunda zulfing tarab o'ynaydur
Budir harif, ey ko'ngul, mag'rurligang et barbod.
Doirai taqdirda biz nuqtai pargormiz,
Lutf ulki - sen o'ylaysan, hukm ul - qilasan ijod.
Beboshligu o'jarlik rind olamida yo'qdir,
Rind mazhabida bunlar bir kufr deb o'lmish yod.
Ko'ngil sirini, go'stlar, kimga yechay olamda:
Har yonda yurar yorim - ko'rmas yuzin odamzod.
Men tong yeliga oqshom qildim gila zulfidan,
Aydiki: g'alatdir bu savdoyi kabi faryod.
Soqiy, chaman-u gulda sensiz sira ravnaq yo'q,
Shamshodni xiromon qil, bog'ni bezab, et obod!
Bu gardishi zumraddan qondir jigarim - may ber,
Zumrad kosadan mushkil hal bo'lg'usi, ko'ngul shod.
Hijron tugadi, Hofiz, vasl islari kelmoqda,
Ey oshiqi shaydoyi, bu aysh muborakbod!

Chustiy tarjimalari

* * *

Sabo, degil, u kiyik ko'zli sho'x ra'noga:
Ravona qilding o'zing bizni tog'u sahroga.
Shakarfurushki, omon bo'lsin, ul nega boqmas
Mudom shakar yeguvchi to'g'in shakarxoga?
Ichishda yor ila may esla mayparastlarni.
Shu xilda o'tdi ular ham kelib bu dunyoga.
Chiroy g'ururi magar ruxsat etmadi, e gul,
Tabassum aylamading bulbulingga - shaydoga.
Tuzog'u donga ilinmaydi asli ziyrak qush.
Asiru band bo'lur xulqi yaxshi zeboga.
Dilida mehri nega yo'q - qarab topolmasman -
Ki, qancha sarvqad, oy yuzli ko'zi shahloga.
Jamoling aybli emas, bemisol erur-ku, faqat
Vafoyu mehr uzoq ermish chiroyli barnoga.
Bu baxtu suhbatu do'stlarni shukrin et, esla
G'ariblariningniki, ovora dashtu sahroga.
Tarannum aylasa Hofiz so'zini Zuhra agar,
Ajab emaski, kelur zavqi raqs Isoga.

* * *

Baxt tongidir - qani ul jomi misli oftob?
Qayda bundan yaxshi fursat; menga sun bir jom sharob.
Soqiy yoru xoli uy, mashshoq xazilkash xo'b shirin,
Bu yigitlik davri - mayning navbati ishratga bop.
Mashq etar sozanda, yor qarsakda, mastlar raqsda,
Quvdi mastlar uyqusin noz birla soqiy beniqob.
Xos xilvat tinchu insonga tomosho joyidur.
Buki, men ko'rmoqdaman: o'ngimmi, yo Rab, yoki xob?
Pokiza mayning xasli birla sho'x esgan sabo,
Yoshirur xo'b yaxshi gul bargiga gulshanda gulob.
Ko'ngil ochmoqlik, go'zallik, shodu xursandlik uchun
Yaxshi bo'lg'ay qo'lda oltin jom-u limmo-lim sharob.
Tingla Hofiz so'zlarin - bo'ldi xaridor to'lgan oy,
Yangragay har bir nafas Zuhro qulog'ida rubob.

* * *

Marhamat qil, do'st salomin keltur, e bodi sabo,
Aylayin zavqim bilan do'st nomiga jonim fido.
Xuddi bulbuldek qafas ichra bu ko'nglim to'tisi,
Do'stni shakkar la'lu bodomiga bo'lmish muftalo.
Xoli - dona, jingalak sochi - tuzoq, men - qush kabi,
Donadan aylab umid, tushdim - ilindim dom aro.
Kimki do'st jomidan ichsa men kabi bir jur'a-may,
To jahon boricha boshini ko'tarmas mutlaqo!
Sevgiga bir noma yozdim ushbu holimdan - yetar,
Bo'lg'usi bosh og'rig'i ortiqcha so'zdan dilrabo.
Men visolin izlasam, u ayriliqning qasdida,
Xohishim tark ayladim - maqsadga yetsin mahliqo.
Gar muyassar bo'lsa yor yurgan yo'lin tuprog'idan,
Ming sharaf menga - qilay ikki ko'zimga to'tiyo.
Hofizo, dardu g'amida kuy - davosin izlama,
Yor vaslidan bo'lak bu dardingga yo'qdir davo.

* * *

Yoru do'stlar suhbatu-yu, zavqli bo'ston yaxshidur!
Yaxshi gul fasli, may ichmoq vaqti obdon yaxshidur!
Tong nasimidan ko'ngillar ochilur har lahzada,
Toza dil, toza nafaslar, chunki har on yaxshidur!
Gul ochilmasdan turib ketmoqqa qasd etdi yana,
Yig'la, bulbul, ko'ngli majruhlariga afg'on yaxshidur!
Mujda bo'lsin tunda kakku qushga ishqing yo'lida,
Yor uchun har kimki bo'lsa tunda nolon yaxshidur!

Garchi shodlikning jahonda ismi bor-u, jismi yo'q,
Xush tabiat sho'xlik rasmi-la jonon yaxshidur!
Bog'da savsanning tilidan bu sadoni tingladim,
Der edi: dunyodan o'tmoq tezu chaqqon yaxshidur!
Hofizo, tarki jahondan so'zlamog ko'ngil ochar,
O'ylamaysan: shohlarga davru davron yaxshidur!

* * *

Qaysi uyning sham'idir u, qaysi joyda xonasi?
O'rtadi jonni so'rang, kimning erur jononasi?
Bu zamon dinu dilimni xonavayron ayladi,
Bilmadim kimning erur u munisu hamxonasi?
Lablarining bodasi hargiz labimdan ketmasun,
Kimga so'z bermish vafodan - may to'la paymonasi?
Ul saodat sham'ining bazmi erur kimga nasib,
Siz, Xudo haqqi, so'rang, kimdur uning parvonasi?
Har kishi afsun bilan tortmoqchi, ammo bilmadik,
Tortadur nozik dilin kimning shirin afsonasi?
Yo Rab, ul oy yuzli, yulduz chehrali oliy nishon,
Qaysi konning gavhari, kimning erur durdonasi?
Qildi ichmasdan labining bodasi dilni xarob,
Kimga ulfat, kim erur hamkosa, hampaymonasi?
"Ohkim, Hofiz dili devonadur sansiz", - dedim.
Sho'x tabassum birla: "Bu kimning, - dedi, - devonasi?"

* * *

Shahraro oy yuzligim yo'q - hafta bo'ldi menga yil.
Bilmagaysan b e h ay riliq mushkildir-u, o'rtandi dil.
Sevgi lutfi-la yuziga tushdi ko'zim nuktasi,
Ko'rdi yor husnida aksin - xol, dedi, mushkin asil.
Marhamat barmog'ini cho'zding shaharlarga qarab,
Balki parvong yo'q g'ariblar holiga senda, degil.
U shakardek lablaridan sut hidi kelgay hanuz,
G'amza birlan garchi kipriklar olur jonni dadil.
Bitta gavhar ikki taqsim bo'lmog'i mumkin ekan,
Chunki la'ling, e go'zal, bu so'z uchun yaqqol dalil!
Biz tomon bir kelmog'ingdan xush xabarlar berdilar,
Niyatingdan qaytma, qutlug' fol erur bu - yaxshi bil!
Qay yo'sin hajring g'amin tog'in ko'targay notavon.
Noladan-ku bo'ldi Hofiznng tani bir tola qil.

* * *

Mastman yoding bilan - menga pisand ermas sharob,
Xumga ayt, ketsin olib bosh, bo'ldi xumxona xarob.
Gar bihishtning bodasi ham bo'lsa, siz yerga to'king,
Har shirin sharbatki ersa, yorsiz bergay azob.
Ming taassuf, dilbarim keldi-yu, ko'zim yoshlanib,
Yor xatu xolin ko'rishga tomchilar bo'ldi hijob.
Uyg'on, ey ko'z, chunki beparvo yotish mumkin emas,
Uyqu joyidan kelur bu sel - damodam behisob.
Yor o'tar senga jamolin oshkoro ko'rsatib,
O'zgalar ham ko'rmasin, deb husniga tutgay niqob.
Gul sening alvon yuzingda ko'rdi terning jilvasin,
Rashk o'tida qoldi, shul dam gulni g'arq etdi gulob.
Yondi yuz-yuz sham husningdan ko'ngil bazmiaro,
Bu taajjubkim, yuzingda bor edi qat-qat hijob.
Dashtu sahro yashnadi, qo'ldan bu fursat ketmasin,
May bilan serob bo'lgil, bu jahon butkul sarob.
Endi zavqim xonasida yo'q nasihatga o'rin,
Nag'maga to'ldirdi bu uyni nayu changu rubob.
Sevgi yo'li qanchalar kengdirki, ta'zimi uchun
Osmon bo'lmshp bu dengiz ichra go'yo bir hubob.
Ey ko'ngilning nuri, diloro yuzingni ko'rmagach,
Raqs etar go'yoki o't ustidan dil jizg'in kabob.
Tong emasdir bo'lsa Hofiz oshiq shaydoyu rind,

Negakim, bu vaz'iyat yoshlik chog'ida sozu bop.

* * *

Yuzing husning-la tuzdi ittifoq-u, oldi dunyoni,
Jahonni olsa bo'lgan ittifoqlik birda har oni.
Muhabbat ahlining sirrini ochmoq bo'lgan erdi sham',
Xudoga shukrkim, kuydi tili-yu, ketdi darmoni.
Sening rangi hiddingdan so'zlamoqni xohlab erdi gul,
Sabo qizg'andi yu, dam tortdi gulning bitdi imkoni.
G'urur aylab, boshiga egri qo'ydi do'ppisin lola.
Qizil may ko'ksini dog' etdi - ravshandir yurak qoni.
U kun bir kosa may ishq'i butun kuydirdi borimni,
Go'zal soqiy yuzining aksidan o't tushdi pinhoni.
Zamona ishlari bir nuqtadek jismim o'rab oldi.
Yurardim aylanib pargor kabi - soldi bu g'avg'oni.
Yozibdurlar buni gul yaprog'iga lola qonidan,
Kimiki puxtadur, olg'ay qizil may qo'lga har oni.
Qo'limga jomi Jamshidiyda may ber tongda, mayno'shlar
Quyoshdek nur sochar tig'i bilan fath etdi dunyoni!
Ko'z och, fursatga boq - olamaro ko'p fitna qo'zg'algach,
May ichdi g'am bilan, soz oldi qo'lga yurtning eshoni.
Mening qalbimaro har damda yongan yoshirin o'tdan
Quyosh bir shu'ladurkim, ko'kka chiqdi - bo'ldi nuroniy.
Latofat suvlari, Hofizki, nazmingdan tomib turgay,
Bo'laklar qay yo'sin fahmi olur bu xilda ma'noni.

* * *

Qo'rqaman - g'am pardasin yirtar oqib yoshim qator,
Dildagi pinhon sirim olamga bo'lgay oshkor.
Bir maqomda sabr etib, tosh la'l bo'lgay deydilar,
Bo'lga-yu, ammo jigar qoni-la bo'lgay e'tibor.
Arzu dod etmoqni xohlarman bu kun mayxonada,
Shoyad unda dil bo'lur g'amdan yirog'-u beg'ubor.
Kekkayish bordur go'zal ul sarvi qadding boshida,
Qisqa bu qo'llar qachon u belga yetgay, e nigor?
To'lgan oysan bu ko'ringan baxtu davlat qasrida,
Boshlar ostonasin tuprog'i bo'lgaylar qator.
Har tarafdan yo'lladim senga duolar o'qlarin,
Loaqal undan biri albatta qilgay senga kor.
Sap-sariq zardek yuzim, mehringni kimyosi bilan -
Himmating tuproqni oltin aylagay, e baxtiyor.
Yorima ohista-ohista so'zimni arz qil,
Ehtiyot bo'l, bexabar qolsin sabo, e joni zor.
Nogahon g'am kelsa senga, o'zni tut - bo'lma tajang,
Shukr qilg'il, toki battarroq'iga bo'lma duchor.
Sen ishongil, g'am yema, sabr ayla, ey dil, oqibat
Shomdan tong, kechadan kunduz kelur, qishdan bahor.
Men ajab hayratdudurman ul raqibning kibridan,
Topmasin, yo Rab, bu xil nomard hargiz e'tibor.
Hurmati albatta kun-kundan oshar xalq oldida,
Husnidan boshqa fazilat ham agar insonda bor.
Dilda mehring, boshda ishqing sut bilan kirgan erur,
Tanda jonim boricha qolgay tanimda barqaror.
Bosh chiqargay qabridan Hofiz oyoq o'p'moq uchun,
Qabrin ustiga qadam qo'ysangiz - unga iftixor.

* * *

Shirin hosil berur - do'stlik daraxtin o'tqaz, ey inson,
U dushmanlik niholin yulki, bergay g'am, alam, armon.
Bo'lib mayxona mehmoni, may ich mastonalar birlan,
Xumori bo'lma hargizkim, boshing og'riydi, ey jonon!
Bu suhbat tunlarin bilgil g'animat, shodu xandon bo'l,
Qorong'ulik, yorug'liklar kelur, ko'r o'zgarur davron.
Yo'lin Majnunga bursin - Laylining sorbonini yo'lla,
Uning hukmidadir, s Rab, quyosh birlan mahi tobon.

Hayotingni bahorin topki, yo'qsa bu chaman har yil
Ochar yuz g'uncha nayerindek, ko'rar bulbulcha ming xushxon.
Mening majruh dilim zulfingga bog'lanmish, Xudo haqqi,
Buyur, jonimga orom bersin ul la'li labing shul on.
Mading ketmish, ey dil, g'am yuki ostida qolmishsan,
Borib bir kosa may ich, balki bo'lgay dardingga darmon.
Qarilik chog'ida Hofiz tilar bu bog'da Tangridan:
Ariq bo'yida topsa sarvqomatlik go'zal jonon!

* * *

Gul jamoli dilga yoqmas benignor,
Zavqi yo'qdir bodasiz bo'lsa bahor.
Bahyasi yo'q bog'u bo'ston sayrini,
Bo'lmasa bir lola yuzli gul'uzor.
Qilmasa bulbul tarannum bog'aro,
Sarvu gul raqsida bo'lmas e'tibor.
Nozu ne'mat, bog'u gul yaxshi vale
Lazzati yo'q bo'lmasa suhbatda yor.
Yor yuzidan o'zgasi manzur emas,
Hushni band etguchi har suratki bor.
Gulbadan, la'li shakar dildor bilan
Bo'sasiz bo'lsa visol - ne zavqi bor?
Qadri yo'q Hofizdagi jon naqdini,
Arzimas qilmoq uchun yorga nisor.

* * *

Baxtim nedurki, yor labidan bermagay nishon?
Sirri nadur, xabar demagay toleim hamon?
Jonim nisor etay labining bo'sasi uchun,
Yo bo'sa bermadi-yu va yo olmadi u jon.
Yo parda ichra yo'l yo'q-u, men intizorman,
Yo bor-u, parda tutguchi qilmas sirin ayon.
Sabr aylagan kishi yetar oxir murodiga,
Ammo zamona fitnasi bermas menga omon.
Zulfin sabo uchirdi - u nokas falakka boq:
Bermas majol kokilidan uzsam ushlabon.
Pargor singari yuraman chetda aylanib,
Bir nuqtadek bu o'rta yo'l bermadi zamon.
Dermanki, uxlasam ko'raman yor jamolini,
Uxlatmagay meni sira Hofizdagi fig'on.

* * *

Bulbul o'ylarkim, hamisha unga gul go'yoki yor,
Gul xayoli: nozi bulbulning diliga qilsa kor.
Dilrabolik birgina ishq ahlin o'ldirmoq emas,
Gar yesa qullar g'amin - shuldir ulug'lik, e nigor!
La'lining qalbida qon mavj urmog'i qimmatlidir,
Boda narxin pastlatur, afsus, safolda bodaxor.
Bulbul o'rgandi shirin so'zlashni gulning fayzidan,
Yo'q edi unda bu xil nazmu tarannum, yor-yor.
Ketdi dildor - qancha dillar birga yo'ldoshi erur,
Qayda bo'lsa saqlag'il doim salomat, Birubor!
Sen agar nafsing tiyib, bexuda yo'lga yurmasang,
Shubhasiz vasliga yetgaysan, lursan baxtiyor.
Ey yo'lovchi, dilbarimning ko'chasi dandur yo'ling,
Bosh yorar devori, xushyor bos qadam, oqista bor.
Garchi suxbat, ishrating xo'b yaxshidur, ammo, ko'ngul,
Bermagil ishqni qo'lingdan - u azizu e'tibor.
So'fiy ichgan bo'lmasa, nega kulohi qiyshayur?
Ikki jom ichsa yana, salla chuvalgay, e nigor.
O'rganib qolmish jamolishta bu Hofizning dili,
Parvarish qilmish visoling, bermagil ozor, yor!

* * *

Bo'ldim ishqingda kuyib, mashhuri jahon sham'dek,
Tunda oshiqqlar yo'lida men nigahbon sham'dek.
Yumshadi mumdek g'aming ilgida sabrim tog'lari,
O'tu suv ichra erur, chunki tanu jon sham'dek.
Ey quyosh yuzli, bo'libdur kecha sensiz kunduzim,
Menda ishqing zo'rligidan to'ldi nuqson sham'dek.
Qirqilur sabrim pilik yanglig' g'aming qaychisidan,
O'rtanur hajring-la tan har vaqt so'zon sham'dek.
Ko'zlarimdan balki tez-tez oqmaganda qonli yosh,
Fosh bo'lmas lrdi sirrim buncha har yon sham'dek.
G'amga o'rgangan ko'zimga uyqu kelmas tunu kun,
Chunki hijron dardidan ko'z bo'ldi giryon sham'dek.
O'tu suv ichra sening ishqingda o'rtandi ko'ngul,
Yoshi yomg'irdek oqar har lahza, har on sham'dek.
Menga hijron kechasi yo'lla visol parvonasin,
Yo'qsa, ohim aylagay olamni vayron sham'dek.
Ko'kka yetkizgil boshimni bir kecha vasling bilan,
Kel, yorit qalbimni husning birla, jonon, sham'dek.
Qoldi umrim bir nafas sensiz, nigorim, tong kabi -
Shul zamon ko'rsat yuzingni - topshiray jon sham'dek!
Qanday o'chgay dil o'ti - ko'z yosh bilan mehring o'tin
Boshiga Hofiz ko'gardi, bo'ldi so'zon sham'dek.

* * *

Dilimga g'amzadan o'q urma, jonon,
Suzuk ko'zingga boqib, chiqmasin jon.
Chiroying davlati yetdi nisobga,
Zakotin menga ber - men haqli inson!
Qadah to'ldirki, ishqing davlatidan
Agar cholman, bo'libmai baxtli o'g'lon!
Ko'ngul yorim xayoli birla to'ldi,
Bo'lak hech narsa sig'mas dilga shul on.
Mayu mashshoqdan o'zga aytsa bir so'z,
Qalam sinsin, tanimda qolmasin jon!
U g'avg'o ichra kim bir-birga boqmas,
Kelur piri mug'ondan menga ehson.
Sening, zohid, menga tokay firibing,
Asal, sut, olma deb, ham bog'u bo'ston!
Men ul qushmanki, xar shomu sa.harda
Yurakdan sayrashim-la to'lgay osmon.
Icharman g'amli kunlarda faqat may,
Qilibman mayfurush-la ahdu paymon.
Bu qanday yaxshi fursat - boda ichgach,
Vazir, shoh vaxmi yo'q - rohatdadir jon!
Meni ko'rganda da'vogar gado der
Vale g'am boyligi dilda farovon!
Ko'ngilni ul zamon Hofizdan uzdim,
Qachonkim, bo'ldi soqiy mupisi jon.

* * *

Ey sabo, senda u mushkin kokilin xush bo'yi bor,
Sen shu xg'gd birlan qolursan olam ichra yodgor.
Toza saqlasang, ishonch-la topshirish mumkin senga
Husgu ishqning sirri-yu durdonasinkim, beg'ubor.
Bemisol xusning yoqimli - aybi yo'q hargiz, faqat -
Bordir atrofingda yurgan shum raqiblar, e nigor!
Senga, ey gul, bulbul ovozi qachon bo'lgay pisand,
Qarg'alar so'zi qulog'ingda topibdur e'tibor.
Men sen ichgan bodadan xushkayfman - bo'lsin halol!
Qaysi xumdan bu piyolang to'ldi, ayt, mastona yor?
Husn narxini oshirmoqlik ishidir senga xos,
Chunki guldek rangu xush bo'y senda doim barqaror.
Mushku anbari zamona yelga sovursa butun,
Sadqa bo'lsin senga - mushkin xolu xatlar senda bor!
Senga arziydi chiroydan lof urish misli qussh,
Chunki oy yuzli g'ulomlar senda bor saf-saf, qator.

Kekkayib, noz aylama, ey sarv, bu gulshanaro
Xam bo'lur xijlatda boshing, kelsa sarvi gul'uzor.
Qilsam ohista duo, sho'x-sho'x tabassumlar bilan:
Sen o'zing kim, men bilan qanday so'zing bor? - deydi yor.
Madrasa burchidan ishq durrini, Hofiz, izlama,
Xohlasang topmoqni - chiqqil tashqari mardonavor!

Vasfiy tarjimalari

* * *

Bir xush tushimda ko'rdim: qo'lda ekan piyola,
Ta'biri yaxshilikka albattadir havola!
Qirq yilcha dard chekdim, derlar davosi shuldir:
Ikki yillik may ichgil, qilmasdan istihola.
Erdi chigil murodim - yechmoq yo'lini topdim:
Oni berkitgan ermish yor zulfi tola-tola.
Sevgi xumori barbod etgan edi vujudim,
Baxtimni ko'rki, keldi may liq to'la piyola!
Mayxonaga borurman har kun chekib fig'onlar,
Hal etgay unda chunki mushkulni ohu nola.
Har damda qon yutarman, ammo shikoyatim yo'q,
Zeroki, qismatimda shunday ekan navola.
Soldim nazar banogoh tong chog'ida chamanga,
Gul ishq birla bulbul dildan chekardi nola.
Har kimki mext qo'ydi, maqsad gulini termay,
Yelning yo'lida bo'ldi poyloqchi ul nihola.
Gulshan nasimi yoqdi qushlar diliga otash,
Ul dog'danki, oni saqlardi dilda lola.
Dilkash g'azal yozibmish yor maqtoviga Hofiz,
Har baytiga berar tan yuzlab go'zal risola.

* * *

Ko'rding yana, ey dilki, g'ami yor na qildi?
O'z yori vafodoriga dildor na qildi?
Jodu ko'ziga boq: ko'rasan ne-ne o'yinlar,
Mast zulmi aro o'ylari hushyor na qildi?
Yor hajrida ko'zimdagi yosh bo'ldi shafaqrang,
Shumtole ekanmanki, bu xunbor na qildi?
Ey soqiy, qadah tut, bo'lak ishni qo'ya qolgil
Bilmas kishikim, sohibi asror na qildi?
Ko'rgilki, falakka beribon zeb ila ziynat,
Aylanasimon san'ati pargor na qildi?
Tong chog'i yashin chaqnadi Layli haramidan,
Qays qalbini kuydirdi bayakbor, na qildi?
Yondirdi muhabbat o'ti Hofiz dilin, ey voh,
Boq yori qardroniga - ul yor na qildi?

* * *

Zulfingiz qilsa mabodo bir xato, ne bo'lg'usi?
Atr urib, bordi-yu, ko'rsatsa jafu, ne bo'lg'usi?
Ishq o'tidan jandapo'shning xirmoni kuysa, ne bok
Shoxdan zulmu sitam ko'rsa gado, ne bo'lg'usi?
Hechqici yo'q, g'amzangiz gar dilni qurbon aylasa,
Qilsa janjal jonu jonon o'zaro, ne bo'lg'usi?
Ranjimoq yo'qdur muhabbat maslagida - mayni quy,
Har kudurat bo'lsa qam, topgay safoh ne bo'lg'usi?
Ishqbozlikda kerakdir sabru toqat, ey ko'ngil,
Gar malol kelsa ne bo'lg'ay, yo xato, ne bo'lg'usi?
Bedavo g'iybatchilardan turli g'avg'o qo'zg'alur,
Suhbat ahli qilsa hamki mo'jaro, ne bo'lg'usi?
Xonaqohdan ketdi Hofiz, zohido, ayb etmagil,
Topgusi erkin kishi har qayda jo, ne bo'lg'usi?

Jumaniyoz Jabborov tarjimalari

* * *

Mujda keldi: endi hech qayg'u bilan g'am qolmagay!
Avval-oxir neki mavjud bo'lsa, ul ham qolmagay!
Xokisor o'ldim agarchi yorning nazdida men,
Qoshida ag'yor ham shodu mukarram qolmagay!
Bu zabarjadli ravoqqa yozilibdir zar ila:
Yaxshilik qolgay jahonda, o'zga olam qolmagay!
Pardadorkim, barchani bir-bir kesar shamshir ila,
Hech bir inson dahraro manguyu mahram qolmagay!
Neku bad naqshin ko'rib, shukru shikoyat ne kerak?
Xatti borliqda raqamlar ham mujassam qolmagay!
Majlisi Jamshid aro shunday qo'shiqdir - mazmuni:
Boda tutgil, jom uzatgil, bir kuni Jam qolmagay!
Ey tavongar, sen bu darveshning dilini shod qil,
Bu xazina ichra zar, s ganju dirham qolmagay!
Sen g'animat anglagil parvonaning vaslini, sham',
Bil, quyosh chiqqach, bu nozik dilrabo ham qolmagay!
Yordan sen tama'yu ummidni uzma, Hofizo
Ham jabrdan bir nishon, naqshi sitam ham qolmagay!

* * *

Zamon anduhiga hech sohilu poyon ko'rmasman,
Bu dardga arg'uvon maydan bo'lak darmon ko'rmasman.
Dedim: mayxona pirin xizmatin tark etmagum aslo,
Bu ahddan o'zga o'zimga biror imkon ko'rmasman.
Xumorman - tomchi mayni menga lozim ko'rmagay hech kim,
Demak, ahli jahonda do'st ila yoron ko'rmasman.
Oshiq ahli Xudo bilan yaqin derlar, o'zingni tiy -
Ki, shahrim shayxlarida ishqdan unvon ko'rmasman.
Belingda kokiling - unga dilimni bog'lamishman men,
Bo'libman zulmati zulfing aro pinhon, ko'rmasman.
Sening qadding mening ko'z yoshlarimdan bahralar olgay,
Bu xil obi ravonu ham so'lim bo'ston ko'rmasman.
Bu hayron ikki ko'zimdan, ming afsuskim, ming afsuskim,
Ikki oynadirki, husni nurafshon ko'rmasman.
Bu daryo mavjida Hofiz dili bir kemadek suzgay,
Quruq so'zu suxandan foydayu ehson ko'rmasman.

* * *

Senga izhori dil qilmoq havasdir,
Sening qalbingni ham bilmoq havasdir.
Raqiblardan, qarang, oshkor dardim
Nihon tutmoqqa intilmoq havasdir.
Qadr oqshomi-ku oliy, muqaddas,
Sening-la tun bo'yi bo'lmoq havasdir.
Nafis durdonalarni tori dilga
Mehr-la injudek ilmoq havasdir.
Madad bergil, sabo, tun ichra menga,
Saharda gul-gul ochilmoq havasdir.
Bu lutfing-chun ko'changni kiprigim-la
Supurmoqlikka egilmoq havasdir.
Yozib rindona she'rlar xuddi Hofiz,
Da'vo ahliga bas kelmoq havasdir.

Shoislom Shomuhamedov tarjimalari

* * *

Tong-sahar vaqti, qarang, sabru sabotim berdilar,
Qop-qora tundan olib, obi hayotim berdilar.
Nogahono porlatib jismimni ezgu shu'lasi,
Sarbalandlik jomida yangi sifatim berdilar.
Ne muborak tun edi ul va ne xurram kech edi,
Ul qadr kechda mening qutlun barotim berdilar!
So'ngida vasfi jamolim ko'zguda ko'z-ko'z etib,
Mujda keldi-yu, shul on jilvai zotim berdilar.
Men agar shodmon yetibman maqsudimga, ne ajab,
Bu mening haqqim edi - haqqu zakotim berdilar!

Ul sharaf ayyomi baxtim mujdasin berdi yana,
Mehnatu qadrim balanddir - naqliyotim berdilar.
Gar tilimdan ketma-ket shahdu shakarlar yog'ilur,
Bu sabr in'omidirkim, ul nabotim berdilar.
Kimyodir bir ajab piri mug'onga bandalik,
Maykada tuprog'idan ohang - bayotim berdilar.
Doimo Hofiz saharxez subhidam olgay nafas,
Necha zahmatdan xalos aylab, najotim berdilar.

* * *

To magar dunyoda bor mayxonadan nomu nishon,
Boshimiz mayxona pirin yo'lida xoku to'zon.
Ham quloqda dayr pirin halqasi bordir azal,
Halqa birlamiz hamisha, halqa bo'lgaydir hamon.
Qabrimiz ustidan o'tsang, himmat aylagil talab,
Qilgusidurlar ziyoratgoh oni rindi jahon.
Pok poying kafti tekkan bu zamin yillar mudom
Sajdagohi qiblai hushyordil bo'lgay, ishon.
Ket, yo'qol, zohidi xudbin ko'zimizdan to abad,
Parda ortinda jahonning sirlari bizdan nihon.
Ishqi tushgan go'zalim turk qizi bul kun yana mast,
Ishqida xuni dilim bo'ldi yonoqlardan ravon.
Ta'na etma mastni, ey zohidki, hech mag'lum emas,
Kim nechuk ketgay bu olamdan va bilmasmiz qachon?
Shavqing ichra kirsra go'rga ko'zlarim bil, ey nigor,
To qiyomat bo'lajak senga nigoron har bir on.
Hofizo, baxting agar shunday olar bo'lsa madad,
Sevgiling zulfi ham o'zga qo'lda bo'lgay begumon.

* * *

Ketmoqda dil qo'limdan - dil ahlidir sababkor,
Dilda nihon sirim ham bo'lgusi endi oshkor.
Bizning kema siniqdir, dengiz shamoli, qo'zg'al,
Balki yana ko'rarmiz oshno yuzini bir bor.
Besh kunlik umr vafosi afsonayu xayoldir,
Insonga yaxshilik qil, fursat g'animat, ey yor!
Gul shoxi uzra bulbul mastona qildi nola,
Tong otdi, ey xumori, keltir sharobni takror!
Ey sohibi karomat, shukrona qil - sihatsten,
Tarannumingni darvesh ahliga ayla bisyor.
Bu olamu u olam osoyish ikki ishdan:
Do'stlarga chin muruvvat, yovlarga zarda darkor!
Bizni kiritmadilar aslida yaxshi yo'lga,
Xush kelmasa dilingga, qilgin qazoni bekor.
Achchiq bu suvni so'fiy der: Manbai falokat!
Qizlar labidan a'lo menga sharob - madadkor.
Yo'qlik chog'ida, ey do'st, tark etma ishratingni,
May - kimyo, gadoni aylar Qoruncha moldor!
Sarkashlik etma sham'dek, kuydirmasin dilingni
Taftida xora toshni mum aylaguvchi dildor.
Iskandar oynasi ham may jomi-ku - nazar sol,
Doro diyori hrlin u senga qilgay izhor.
Forsiy zabanli turklar umrga yil qo'sharlar.
Soqiy, rindona may tut, raqs aylasin azmkor.
Mayga tegibdi janda - kiymaydi oni Hofiz,
Bizni kechirgil endi, ey shayxi pokkirdor.

* * *

Siyna limmo-lim alam-ku, qayda malhamdan darak?
Yakkalikdan har nafas halqumga jonim kelajak.
Soqiyo, bir kosa may ber - bir nafas orom olay,
Kutmagil orom falakdan - ul o'zi ham jonsarak.
Men dedim ziyrak kishiga: Ko'rgil ahvolin nechuk?
Ul dedi: Olam - parishon, ishlaridir charxpalak.
Sabr chohinda kuyib o'ldik Chigil mohi uchun,

Turk shohi hech xabar olmas, qani Rustambilak?
Ishqbozlik ko'yida xotirjam o'ltirmoq xato,
Ming tilinsin dardingga doru qidirgan xar yurak!
Nozu ne'mat ahlining rindlik ko'yinda yo'q ishi,
Bo'lmagay yo'l boshchi kuymak bilmagan beg'am so'tak.
Chin kishi ko'zga chalinmas - olam ichra istama,
O'zga odam, yangi olam qaytadan tuzmoq kerak!
Turgil o'rningdan, beraylik dilni ul maxga agar,
Mo'liyonning bo'yi kelsa lablaridan bebo'nak.
Hofizo, ko'z yoshidan ne sud bu ishq g'avg'osida,
Ummoningdan yetti daryo tomchidir yoki pufak.

* * *

Jon bejamoli jonon mayli jahoni yo'qdir,
Mayli jahoni yo'qdir, demakki, joni yo'qdir.
Hech kimda dilbarimning topolmadim nishonin,
Yo men xabarsiz omiy, yo hech nishoni yo'qdir!
Har shabnami bu yo'lning otashli bahri ummon,
Har dardi bir muammo - sharhu bayoni yo'qdir.
Qo'ldan chiqora ko'rma farog'atin damin hech,
Ey sorbon, jilov tort - yo'lning poyoni yo'qdir.
Chang qomati egilgan - ishrat aro chalurlar,
Chol so'ziga quloq sol - aslo ziyoni yo'qdir.
Dil, rindlik tariqin sen muhtasibdan o'rgan,
Ichib yurar-u, elning undan gumoni yo'qdir.
Qorun yig'ibdi boylik, zamon etibdi barbod,
Zar yig'magil, deya ayt, vafo hayoni yo'qdir.
Agar raqibi sham'dir - undan siringni berkit,
Bilgilki, sho'x dilafro'z, bandi zaboni yo'qdir.
Har kimsaning jahonda Hofiz kabi quli yo'q,
Hech kimsaning seningdek shohi zamoni yo'qdir!

Erkin Vohidov tarjimalari

* * *

Yorim qo'liga qadahki olgay,
Bozori sanam kasodga qolgay.
Har kimki, ko'zini ko'rsa deydi:
Bu - mast, qani muhtasib, tutolgay?
Ashk bahri aro baliq bo'libman,
Qarmog'ini yor chu suvga solgay.
Zor ila ayog'iga yiqildim,
Ummid etamen: qo'limdan olgay.
Hofiz kabi xurram ul kishikim,
Jomi azali(y)ni no'sh etolgay.

* * *

Kecha doston bo'ldi oshiq davrada gisularing,
To yarim tun bahsga bois bo'ldi anbar mo'laring.
Kipriging novaklaridan qonga aylandi ko'ngil,
Vah, yana qo'msar, ajabkim, ul kamon abro'laring.
Avfilillohkim, sabo keltirmasa sendan xabar,
Hech nasib bo'lmasdi ko'rmak bizga ko'cha-ko'laring.
Bexabar erdi jahon avvalda ishq oshubidin,
Qoldi g'avg'oga u ko'rgach g'amzai jodularing.
Men ham avvallar edim dardi junundin bexabar,
Qo'ydi domin yo'llaringga kokili hindularing.
Tugmalarni yechgil-u, dil mushkulin ayla kushod
Kim, yechilmog'imga bois dilkusho kulgularing.
Kel vafo aylab, qadam qo'y Hofizingning xokiga
Kim, bu olamdan olib ketmish meni orzularing.

Jonibek Quvnoq tarjimalari

* * *

Bir umr mayxona burchi xonaqohimdur mening!
Piri mayxo'rlar hamisha qiblagohimdur mening!
Tong chog'i may bo'lmasa - hech bir xatarli joyi yo'q,
Tongdagi qilgan fig'onim uzrxohimdur mening.
Shukr eturman - yo'q erur shohu gado birla ishim,
Do'st dargohin gadosi podshohimdur mening!
Masjidu mayxonadan maqsad faqat diydor ko'rish,
O'zga yo'q fikrim - Xudovandim guvohimdur mening!
Ostonaig boshga sstiq bo'ldi-yu bir taxt kabi,
Oftobing toju taxti takyagohimdur mening!
Yetmaguncha to ajal tig'i boshimga, shubhasiz,
Yuz o'girmak eshigindan ishtibohimdur mening.
Nosavob ishlarga yo'q, Hofiz, sening mayling vale
Xushodoblikdan deginkim: bu gunohimdur mening!

* * *

Lablarningning sharbatidan chiqmadi komim hanuz,
La'l joming orzusida bo'sh turar jomim hanuz.
Kecha g'orat bo'ldi dinim ikki zulfing domida,
Ushbu savdoda ne tus olgay saranjomim hanuz.
Yanglishib tunda Xo'tan mushki, dedim, zulfingni men,
Tig'dayin botgay soching, qon sochgay andomim hanuz.
Yuzlaringni shu'lasin xilvatda ko'rди oftob,
Tig'iga bo'ldi nishona eshigu tomim hanuz.
Bir kuni nomimni tilga oldi jonon yanglishib,
Barcha oshiqqa misoli jon erur nomim hanuz!
Lablarningning soqi(y)si berdi azaldan qatra may,
Ketmagay mastlar tilidan nomu payg'omim hanuz!
To bo'lay oromi joning, o't, deding, jon baxtjdan,
G'amlaringga jonni berdim - yo'qdir oromim hanuz.
Yozdi Hofiz mex ila la'li labingning qissasin,
Chashmadur obi hayotga she'ru ilhomim hanuz.

Olimjon Bo'riyev tarjimalari

* * *

Mudomim mast tutg'aydir nasimi ja'di gisuying,
Xarob etgay meni har dam firibi chashmi joduying.
Necha sabru toqatdan so'ng tuni, yo Rab, ko'rolg'aymen
Ko'zim sham'ini yoqmog'ini bir mehrobi abro'ying.
Savodi lavhi ko'rmoqni aning-chun men aziz tutgum:
Jonimg'a nusxaye bo'lg'aymi naqshi xoli hinduying.
Agarda jovidon dunyoni yashnatmoqni istarsan,
Sabog'a ayt, ko'targaykim zamone burqa'i ro'ying.
Va gar rasmi fano istarsan olamdan burib yuzni,
Ki silkib yer uza to'ksin minglab jonni har mo'ying.
Manu bodi sabo miskin - iki sarsoni behosil
Men afsun mast ko'zingdin-u, u masti bo'yi gisuying!
Yashab himmat-la Hofizingni dunyoyu oxiratdan,
Ko'rinmas hech ko'ziga juz ul xoki sari ko'ying.

* * *

Dardimizga yo'q darmon, alg'iyos!
Hajrimizga yo'q poyon, alg'iyos!
Dinu dilni oldi-yu, jon olg'usi,
Alg'iyos, ey jabri jonon, alg'iyos!
O'ptirib bir - evaziga jon so'rar,
Bag'ritosh ul sho'xi xubon, alg'iyos!
Bevafolar qonimizni ichdi-ku,
Ey musulmonlar, ne darmon, alg'iyos!
Misli Hofiz kecha-kunduz tinmayin
Yig'ladigu yig'ladik qon, alg'iyos!

Mirzo Kenjabek tarjimalari

* * *

Yor zulfining yo'lida xato ketsa - ketibdir!
Bizga qaro xolidan jafu ketsa - ketibdir!
Ul yor xirmanida ishq barqi kuysa - kuymish,
Shoh jabri biz gadoga ravo ketsa - ketibdir!
Dil xotiri tariqat yo'lida yo'q - ketir may,
Ko'rgan kudurating ham safo ketsa - ketibdir!
Sevgi sabot so'raydir, ko'ngilginam, sabr et,
Malol kelsa - kelibdir, xato ketsa - ketibdir!
Dildor g'amzasidin dil xor o'lsa - o'libdir,
Jononu jon aro mojaru ketsa - ketibdir!
So'z ahlidin malomat ayon kelibdir, ammo,
Davradoshlar aro tek nizo ketsa - ketibdir!
Hofiz aybini, voiz, ayt, nega xonaqohda
Bog'labsan erk oyog'in, qo'y-o, ketsa - ketibdir!

* * *

Saloh bizdin ne istarsenki, mastlarga salo debmiz,
Ajob mast nargising davri salomingga duo debmiz.
Menga mayxonaning ochg'il eshikin - xonaqoh berkdir,
Ishong'il, gar ishonmassen, shudir so'z, biz ado debmiz.
Sening ko'zingdan, ey soqiy, xarob bo'ldim, xarob bo'ldim,
Vale do'stdan balo kelsa, yana ming marhabo debmiz!
Muruvvat etmasang bizga, pushaymonlig' bo'lur oxir,
Unutma hech bu ma'noniki, xizmatdin sango debmiz.
Dedim: qadding erur shamshodu yondirdi xijolatlar,
Nechun aytib bu nisbatni, bu bo'htonni raso debmiz!
Jigar nofam kabi qondir - qarodir, chin jazodir bu -
Qaro zulfingga so'z aytibmiz-u, chindan xato debmiz.
O'zing otashsan-u, Hofiz valekin yor yonmaydir,
Demak, guldin shikoyatni saboga noravo debmiz.

* * *

Dedim: Labing qachon-o bir komron aylayur?
Dedi: Naki deyursan - ko'zga, shu on aylayur!
Dedim: Misr xirojin aylayur talab labing.
Dediki: Bu talabda bir oz ziyon aylayur.
Dedim: Kim ul - dahoning nuktasiga topdi yo'l?
Dediki: Bu qissani ul nuktadon aylayur!
Dedim: Samad-la o'ltir, sanamparast bo'lma!
Dediki: Ishq unga ham, bunga ravon aylayur!
Dedim: Mayxona zavqi g'amni olur dildin.
Dedi: Yaxshidur ulkim, dil shodmon aylayur!
Dedim: Sharobu xirqa mazhabga odat ermas.
Dedi: Qabul mazhabi piri mug'on aylayur!
Dedim: La'li labingdin men keksaga ne suddir?
Dediki: Bo'sa boldur, ul navqiron aylayur!
Dedim: Qachon xoja hajla tomon borgay?
Dedi: Qachonki oy-u Zuhro qiron aylayur!
Dedim: Duoyi joning etmak Hofizga shondir!
Dedi: Yetti osmon duoyi jon aylayur!

Ergash Ochilov tarjimalari

* * *

Bir dilbari jononimiz oldi-ku dilu jonimiz,
Oldi-ku dilu jonimiz bir dilbari jononimiz.
Bersa o'pich jononimiz qayta tirilgay jonimiz,
Qayta tirilgay jonimiz, bersa o'pich jononimiz.
Chin ravzai rizvonimiz yor eshigin tuprog'idir,
Yor eshigin tuprog'idir chin ravzai rizvonimiz.
Bizning dili hayronimiz oshuftayu shaydosidir,
Oshuftayu shaydosidir bizning dili hayronimiz.
Ul Yusufi Kan'onimiz husn iqlimining shohidir,
Husn iqlimining shohidir ul Yusufi Kan'onimiz.
Sarvi bog'u bo'stonimiz zebo, kelishgan qomati,

Zebo, kelishgan qomati sarvi bog'u bo'stonimiz.
Shu Hofizi xushxonimiz fazlu kamol timsolidir,
Fazlu kamol timsolidir shu Hofizi xushxonimiz.

* * *

Qaytadi Kan'onga ul Yusufi sarson, g'am yema!
Bir kuni g'am kulbasi bo'lgay guliston, g'am yema!
Bo'lma badbin v'B" g'amzada ko'ngling ishi o'nglangusi,
Toabad savdoli bosh qolmas parishon, g'am yema!
Boshga tortarsan yana gul pardasin bo'ston aro
Kelsa umring ko'klami, bulbuli xushxon, g'am yema!
Bu falak biz istagandek bir nafas aylanmadi,
Lek mudom bir xilda qolmas charxi gardon, g'am yema!
Noumid bo'lma, ilohiy sirga aqling yetmasa,
Ko'p o'yinlar, bilsang, ul pardada pinhon, g'am yema!
Gar fano seli hayotingning asosini yiqar,
Nuh panohing bo'lsa, kelsin, mayli, to'fon, g'am yema!
Ka'ba shavqida bisbonlarni qat' esang agar,
Shox-tikan tilsa oyoqni, aylasa qon, g'am yema!
Bizga yor hajri, raqib ozori, bas, qismat emish,
Holimizdan boxabar aslida Yazdon, g'am yema!
Kimki sargardon bo'lib, olamda g'amxo'r topmadi,
Oqibat bir mehribon topgay ul inson, g'am yema!
Garchi manzil ko'p xatarlik, garchi maqsad noayon,
Yo'q biror yo'lki, unga bo'lmasa poyon, g'am yema!
Bu faqirlik go'shasi, tun xilvatida, Hofizo,
To ishing zikru duo, tahsili Qur'on, g'am yema!

* * *

Do'stlar bazmu visolin yodda tut!
O'tgan ul kunlar xayolin yodda tut!
Bir vafoli do'st topolmaysan bu kun,
Ul vafo ahli kamolin yodda tut!
Qildi g'am achchig'i og'zimni zahar,
Jom jarangi, may zulolin yodda tut!
Men-ku g'amga chora topmay yonaman,
Chorasiz holi maholin yodda tut!
Garchi do'stlar men faqirni eslamas,
Har nafas do'stlarni holin yodda tut!
Men balo domiga bo'ldim muftalo,
Haqparastlar sa'y-jidolin yodda tut!
Qoldi Hofizning siri aytilmayin,
Sirdosh ulfatlar jamolin yodda tut!

* * *

Jahonda bo'ldi odat bevafoqlik,
Birovda yo'q nishoni oshnolik.
Hunar ahli faqirlik hasratidan
Xasislar qoshida qilgay gadolik.
Bu kun har kimki donishmand jaqonda,
Unga qismat alamga muftalolik.
Kishi johilu nodon bo'lsa qancha,
Bu bozorda uning moli baholik.
O'qib shoir chiroyli she'rlarini
Ko'ngillarga ulashsa ro'shnolik.
Tariqcha xayru eqson aylamaslar,
Sanojydek agar she'ri safolik!
Kecha aqlim qulog'imga shivirlar:
Chida, ketmas boshingdan benavolik!
Kel, ey Hofiz, bu pandni tingla jondan,
Ado qilgunicha she'rga fidolik.

* * *

Ey shom, ko'yimiz sari guzar qil!

Ey tong, qolimizga bir nazar qil!
Tun zulmatida ezildi jismim,
Yo Rab, qora tunlarni sahar qil!
Ey tong yeli, ul sanamga aytgil:
Qurbonlaring sari guzar qil!
Hajring g'amida agarchi o'ldim,
Ey yor, meni o'qingga sipar qil!
Qoshini kamonidan xazir bo'l,
Noz-ishvasi o'qidan xazar qil!
Maqsadga yetolmasang, ayo dil,
Jim bo'l-u, so'zingni muxtasar qil!
Yor vaslini, Hofiz, istar ersang,
Jon ber yo'lida-yu, tarki sar qil!

* * *

Yor ishq menga nihri hayrat,
Yor vasli menga kamoli hayrat.
Vasli mayiga cho'mish bas, oxir -
Ko'rsatgusi yuz jamoli hayrat.
Bas, qolg'usi na visol, na vosil,
Har qaydagi bor xayoli hayrat.
Tutmish yeru ko'kni bir ovoza,
Eshitdim esa: savoli hayrat.
Tan berdi ulug'ligiga butkul,
Kim angladi ne jaloli hayrat!
Hofizni vujudi boshdan-oxir
Ishq ichra emish niholi hayrat.

* * *

Dardim meni dildordan-u, darmon ham,
Dil bo'ldi o'shal yorga fido-yu, jon ham.
Husn ichra topilmas tengi yorni, ammo,
Ul ishq muhabbatda shahi davron ham.
Qonimga emish tashna u - tutsin yodda:
Sindirdi-yu ahdini, unut paymon ham.
Men-ku yashirur erdim azal ishqimni,
Afsona emish el ichida, doston ham.
Bas, davlati vasli-ku muyassar bo'ldi,
Albatta o'tar ayrilig'u hijron ham.
Yor husnining bir jilvasi ikki olam,
Undan yana ne paydo bo'lar, pinhon ham.
Dunyo ishiga yo'qdir ishonchim aslo,
Yurmaydi ra'yingga charxi gardon ham.
Oshiq cho'chimas hech kishidan - may keltir,
Hech qozini qahri-yu, hukmi sulton ham!
Ul muhtasib yaxshi bilar: Hofiz - oshiq,
Shu mulki Osaf, davlati Sulaymon ham!

* * *

Eyki, doim o'zingga mag'rursan,
Bo'lmasa aqling seni, ma'zursan.
Senki ishq ah.liga tekkizma tiling,
Aqlu oqillik ila mashhursan.
Ishq mayining mastligi yo'q boshingda,
Chuiki uzum suvi-la ma'mursan.
Rangi somon, ohi misoli otash,
Oshiq elining nishonin so'rsang.
Baxridan o't nomusu orning, Hofiz,
Ista may jominikim, maxmursan.

* * *

Musulmonlar, menga vaqti dil erdi,
Dedim yoringa har ne mushkil erdi.
Biroq hamdardu sri maslahatgo'y

Azal suyanchi har ahli dil erdi.
G'amidan may kabi girdobga tushdim,
Iloj yolg'iz umidi sohil erdi.
Meningdek yor ko'yida yitdi ko'plar,
Etakdan tutguchi ne manzil erdi?
Bu telba bandaga rahmatlar ayting,
U bir vaqt korvoni komil erdi.
Menga so'z darsini o'rgatdi to ishq,
So'zim katta-kichikka ma'qul erdi.
Talab yo'lida durlar to'kdi ko'zim,
Biroq yor vaslidan behosil erdi.
Yetar, aytmaki, Hofiz nuktaondir,
Axir, ko'rdik-ku biz: ko'p g'ofil erdi.

* * *

Zohidi zohirparast ishq ahliidan ogoh emas,
Bas, malomat qilsa-qilsin - so'zlari dilxoh emas.
Har ne yuzlansa sulukda lutf erur solik uchun,
Ul siroti mustaqimda hech kishi gumroh emas.
Uynar-u rux ming maqomda, biz piyoda surgamiz,
Dona sursa taxtada rindlar majoli shoh emas.
Bu munaqqash, serjilo, oliymaqom ayvon nedur?
Bu muammudan jahonda hech kishi ogoh emas.
Demagil bilmas hisobni sohibi devonimiz,
Baski, iqroring nishoni hasbatanlilloh emas.
Xohlaganlar kelsin-u, xohlaganini so'zlasin,
Ushbu kibr etguchi, hojib tutguchi dargoh emas.
Bosh urish mayxonaga oshiqi sodiqlar ishi,
Xudfuruslar mayfuruslarga sira hamroh emas!
Kelsa har ne ko'rgulik - boisi bizning qilg'ilik,
Bo'lmasa, lutfu karaming kimsaga ko'toh emas.
Men xarobot piriga qulmai - mudom lutf ko'rguzar,
Chunki lutfi shayxu zohid qavmining har goh emas.
Himmati Hofizni yuksak: istamas mavqe-maqom,
Ko'hna may oshig'i orzumandi molu joh emas.

* * *

{ {poem|:Zohidi xilvatnishin keldi kecha mayxonaga,

Tavbasin sindirdi-yu, cho'zdi qo'lin paymonaga.
Davra so'fysi kecha jomlarni sindirgan edi,
Qatra may ichdi-yu, aylandi yana farzonaga.
Yoshi o'tgan borki, g'aflat bahriga cho'mgan edi,
Keksalikda do'ndi qayta oshiqi devonaga.
Dinu dil ovlab yurar erdi tunu kun mug'bacha,
Yor yo'lida aylanibdi hammadan begonaga.
Gul yuzining otashi kuydirdi bulbul xirmanin,
Sham'ni kulgan chehrasi ofat erur parvonaga.
Kecha-kunduz yig'lagandik, shukr, zoye' ketmadi:
Qildi teng ko'z yoshimiz har qatrasin durdonaga.
Sehru jodu oyatin o'qiydi soqiy ko'zlari,
Halqai avrod berar joy majlisi afsonaga.
Endi Hofiz manzili podshohlar dargohidir,
Ketdi dil dildor bilan, bog'landi jon jononaga.

Soqiynoma

Fitnasin boshlagay bu kun ro'zgor,
Menu mayxo'rliyu yor - ko'zi ayyor.
Kel, soqiy, may keltir, tuzalsin ahvol,
Yetishsin farog'at, yetishsin kamol.
Boda tut - yiqildim vayron o'lib dil,
Bu har ikkisidan olmadim hosil.
Kel, soqiy, keltirgil sharob to'la jom,
Kayxusrav, Jamshidga yuboray payg'om.
Nay ila aytayin, eshitsin ulus

Qay biri Jamshidu qay biri Kovus.
Fotihlik kimyosin keltir, ey soqiy,
Qorun ganji Nuhdek topsin umr boqiy.
Qadah tut - umringga umr qo'shilsin!
Orzuying eshigi shunda ochilsin!
Soqiy, Jam jomidan tutgil shunday may,
Yo'qlikda obodlik lofini urgay.
Menga berki, agar yorliq qilsa jom,
Jamdek bilay olam sirrin batamom!
Bu ko'hna olamning sayridan gapir,
O'tmishdagi shohlar umrida ne sir?
Bizga hamon manzil bu xarob jahon,
Afrosiyob taxti ketmishdir qayon?
Lashkarboshi Piron turmas oyoqda,
Turon qilichbozi Sheda qayoqda?
Piron qayga ketdi, lashkari qani?
Turonli Sheda-chi, xanjari qani?
Faqat taxtu qasri bo'lmadi barbod,
Mozorin ham hech kim aylamaydi yod.
Hali ham bizlarga bekat biyobon,
Tur lashkari unda gum bo'lgan oson.
Ne xush so'z demishdi Jamshidi dono:
Arpa doncha turmas besh kunlik dunyo!
Soqiy, o'shal tobnok otashni keltir,
Zardushtni chiqorsin tuproqdan axir!
Menga ber-chi, ichib bo'lay rindu mast,
Nazdida bir otash yo dunyoparast.
Kel, soqiy, har kimda nihoniy iffat,
Xarobot ichinda o'ltirar faqat.
May bergilki, badnom bo'lmoq istayman,
Xarobi mayu jom bo'lmoq istayman.
Andishaga olov solguvchi may ber,
O'rmonga o't qo'ysin uni ichsa sher.
Ichib, shergir falak boshiga boray,
Bu keksa bo'riga tuzoq ham solay.
Shunday may ber, soqiy, jannatiy otash
Ila hur atrini qilib aralash.
Bu xushbo'ylikni ham uray otashga,
Bir xushluq keltiray aqlu dil g'ashga.
May bergil, ey soqiy, keltirsin shohlik
Pokligidan ko'ngil bersin guvohlik.
May bergil gunohdan pok aylagan choq,
Go'rdan bosh ko'taray, ishratda quvnoq.
Ruhoniylar bog'i bo'lmish maskanim,
Nechun taxta uzra banddadir tanim?
Menga sharob ber-u, davlatim ko'rgil!
Xarob aylab, ganji hikmatim ko'rgil!
Men shunday qo'limga qadah olgan on
Bo'ladir ko'zguda har sir namoyon.
Mastlikda podsholik damin urgayman!
Shohlikda gadolik damin urgayman!
Mastlikda sir durrin terayin chandon,
Behudlikda sirmi kim tutar pinhon?
Agar Hofiz qo'shiq aytsa mastona,
Zuhra rubob kuyi to'lar osmona.
Mug'anniy, qaydasan, yangratib rubob,
Shohona qo'shiqni esga ol shu tob.
Bexudlik yo'lini tanlabon biz ham,
Zikr sho'x raqsiga tushaylik bul dam.
Taxtu toj iqboli farovon bu kun,
Daraxtida shohlik mevasi to'kin.
Zamon podshohi, zamin sardori,
Davlat osmonining oyi, tojdori.
Ul shohlik taxtining ustuvorligi,
Baliqdan qushgacha tinchlik yorligi.
Iqbol egalari ko'z nur hikmati,
Sohibdil kishilar valine'mati.
Alo, ey humoyu humoyunnazar,

Farishtatabiat, muborakxabar,
Falak sadafida sendek gavhar yo'q,
Faridun, Jamshidda sendek javhar yo'q.
Iskandar taxtida davron sur ko'p yil,
Donishmandlik ila kashf etib ko'ngil.
Birovning diliga tig' ursa ro'zgor,
Boshqa bittasini qilur mansabdor.
Mug'anniy, chalib ber yangi bir navo,
Rubob chalib, ayla raqibga nido:
Bu kun yov ustidan topurmiz zafar,
Osmondan kelmoqda yaxshilik xabar.
Mug'anniy, xursandlik kuy-la qo'sh hissa,
G'azal qavli birla boshlagil qissa.
G'am yukidan yerga botmishdir oyoq,
Usuling zarbi-la qo'zg'atgil bu choq.
Ulug'lar ko'nglini kuy ila shod et,
Parvizu Borbadning nomini yod et!
Mug'anniy, pardadan shunday naqsh ol,
Parda tagidagi gapni esga sol.
Musiqqa sadosin yangrat shu zayl,
Nohid ham raqsga tushsin muttasil.
Shunday chalki, so'fiy hushidan ketsin!
Mast bo'lib, xayolan visolga yetsin!
Mug'anniy, childirma, sozingni soz et,
Yaxshilik odati birla ovoz et!
Firibgar jahonning qissasi ravshan,
Homilador bu tun ne tug'ar ekan?
Mug'anniy, ozurda xotirim kuyla,
Yagona bo'lsa ham bu sirim kuyla.
Davrondan g'am-alam ko'radi dilim,
Bilib bo'lmas kimga intizor o'lim.
Mug' rindi yoqmoqda yana olovin,
Kimning o'chog'ini buzar qalovi?
Qon to'kuvchi bunday qiyomat kuni,
Kosayu ko'zasi sinsaydi uni.
Mastlarga ashula payg'om yubormish,
Ketgan do'stlarga ham salom yubormish.
Kel, soqiy, o'shal may otashga oshno,
Yubor, g'amdan xalos bo'lay mutlaqo!
Menga may ber - ko'ngil sultoni edim,
Bu kun olis ketdim, dil joni edim.
Kel, soqiy, kelaqol, umr - bevafo,
May - vosita, unga gado bo'l, gado!
Faqat may umrga qo'shadir umr,
G'oyibning eshigin har dam ochadir.
Kel, soqiy, sharob suz, majlis et barpo,
Dunyo bevafo, dunyo bevafo!
Uning qilmishidan shuni oldim yod,
Kayqubod tojini ul etdi barbod.
Kel, soqiy, dil komin maydan et talab,
Dil oromin istab, ich kech, ertalab.
Agar dardu g'amga sabr etsa dil,
Dildan qutqarmoqni maydan talab qil.
Kel, soqiy, kosani qil limmo-lim may,
So'zlab beray nechuk o'tdi Kisro, Kay.
Kel, soqiy, dunyodan g'aflatda qolma,
Oxir qoning to'kar - ichishdan tolma!
Kel, soqiy, kelaqol, sarkashlik qilma,
Sen ham tuproqdansan, o'tdan deb bilma!
Qadaxga mayni quy, yoqimli otash,
Ayniqsa, sof bo'lsa va ersa beg'ash.
Kel, soqiy, esganda xush bo'yli nasim,
Dunyoda qolmagay na oltin, na sim.
Keltir, soqiy, boda bo'lsin la'lin, sof,
Qo'lga tut, tugasin bu yolg'onu lof.
Tasbehu xirqadan bezorman mudom,
May-la ikkovidan bo'shat, vassalom!
Mayxona kunjidan kelaqol, soqiy,

Undan uzoqlashma, unda umr boqiy.
Desa kim: mayxona yurursan nechun?
Ne javob berursan? De: Xayrli tun!
Keltir, soqiy, menga arg'uvon qadah,
Undan dilga shodlik va jonga farah.
Menga tutgil, g'amdan xaloslik berar,
Bazmga ko'rsatib yo'l, xoslik berar.
Kel, soqiy, may tutki, bo'lsin jonparvar,
Xasta dilga jondek g'amxo'r dilovar.
May bergil, jahonga quray bir chodir,
Sarpardam osmondan baland bo'ladir!
Kel, soqiy, quyoshdek, oydek, tutgil jom,
Taxtim oyog'ida falak, vassalom!
Kel, soqiy, ko'hna ul mayxo'rlik bo'lsin!
Mast bo'lay, qadahing paydarpay to'lsin!
Beg'ash qadahingdan agar bo'lsam mast,
Xush kuylarni kuylay men - ishratparast.
Kel, soqiy, jannatdek bo'ldi anjuman,
Yuzingdan yashnadi misoli gulshan.
Maydan chetga, soqiy, tushmaydir yo'lim,
Bir qadah boqiy may ila tut qo'lim.
Jonimni halqumga keltirdi davron,
Mug'lar dayri tomon yo'l oldim ravon.
Bu jahon g'amidan naf yo'qdir, hech naf,
Uni qilmoq mumkin boda ila daf.
Kel, soqiy, zavqbxash maydan suz bul kun,
Ul maydan Raxshga minmoqlik mumkin.
Tahamtan misoli olaylik maydon,
Dilimiz komi-la qilaylik javlon.
Kel, soqiy, uzatgil yoqutdek ichku,
Shodlik eshigini dilga ochar u.
Kel, soqiy, may tutgil misli Salsabil,
Jannat borligidan dilga u dalil.
May ber, sho'x kuylasin childirmayu nay,
Kay tojidan avlo menga unday may!
Kel, soqiy, podshoh xuzuriga bor,
Jamshid tojli shoxga so'zim et oshkor:
Benavo miskinlar dilini ovla,
So'ngra jahonnamo jomingni kovla...
Mug'anniy, chalgil chang ila arg'anun,
Ko'ngildan quv nokas bu dunyo fikrin.
Agarda bir zamon bo'lsam xotirjam,
Ko'ngilda qolmagay na dardu na g'am.
Mastlarga ashula va jom yuborgil,
Ketgan sronlarga salom yuborgil.
Mug'anniy, beri kel, men-la etma jang,
Childirmaga qo'l ur gar bo'lmasa chang.
Eshitdimki, boshga tushsa g'am, balo,
Childirma ovozi ko'ngilga davo.
Mug'anniy, qaydasan, gul vaqtidir, gul,
Chamanni chah-chaxga to'ldirdi bulbul.
Qonim qaynat, dilni urushga keltir,
Bir nafas changingni xurushga keltir!
Mug'anniy, beri kel, uding bo'lsin soz,
Yangi-yangi navo aylasin ovoz!
Bir nag'ma ila qil dardimga chora,
Dilim misli xirqa ayla sadpora.
Mug'anniy, ne bo'lur qilsang lutfu qut,
Naying birla dilga solsang otash, o't.
Meni fikru o'ydan xalos et bir dam,
Dardim kuyib ketsin, barbod o'lsin g'am!
Mug'anniy, qaydasan, navo et niyat,
Bizdek benavoga ber imkoniyat.
Oxir bo'shar ekan bizdan bu dunyo,
Bilib qo'y, shoxlikdan gadolik a'lo!
Mug'anniy, tinchima, kuyla chalib soz,
Biz bechoralarga o'zing chorasoz.
Iroq yo'lin ko'rsat o'zing chalib rudh

Ko'zlarim suvini ayla Zindarud.
Mug'anniy, kel, eshit mendan ushbu pand,
Mening tilim bilan so'zlar donishmand.
Agar g'am boshlasa hujum - tuz lashkar:
Childirma, rubob, nay, chang bo'lsin askar.
Mug'anniy, sirimga sen yolg'iz mahram,
Bir muddat nay chalib, hamdam bo'l bir dam.
May birla uloqtir dilda bo'lsa g'am,
Bir dam naying chalki, bir damlik olam.
Mug'anniy, qaydasan, chalsang-chi, rubob,
Kel, soqiy, kosaga solsang-chi sharob!
Kel, ishrat qilaylik o'ltirib boham,
Yengiltaklik qilib, kulaylik bir dam.
Mug'anniy, she'rimdan o'qib bir g'azal,
Barbat kuyi ila dardga top amal.
Kelaqol, dunyoga hirs qo'yma zinhor,
Kishi mol-dunyo-la topmagay qaror.

Shoislom Shomuhamedov tarjimasini

Tarje'band

Do'stlikni nega sovurding, ey yor?
Shul bo'ldimu va'da, a vafodor?
Majruhu zaif dilimga tokay
G'am ilgida berguzarsan ozor?
Zulfingga asiru beqarorman,
Aytginki, bo'lak ne xislatning bor?
Tokay bu g'ariblaringni jonin
Qiyinab etasan jafo bilan xor?
Har qanchaki dilni kuydirursan,
Men toqat etarman, e sitamkor!
Rahm ila, dedim, sitam qilishdan
Qo'l tortasan endi balki, dildor?
Yo'q zarra umidki, san biror kun
Oshiqqa bo'lurmiding vafodor?
Eng yaxshisi shulki, sabr etarman,
Maqsadga shu yo'l bilan yetarman.
Soqiy, ichay endi qona-qona,
Tun bodasidan sun oshiqona.
Boshimda agar hushim bo'larkan,
To'xtatma qadahni - qil ravona!
Oshyonasidan chamanda qushlar
Boshlabdi yoqimli sho'x tarona.
Sozanda qo'lingga sozning olgil
Sen ham shu nafasda bebahona.
Yor vasliding aylagil tarannum,
Dildan chiqar ud kabi tarona.
Tokay bu zamon g'amin yegaysan,
Hofiz, may ich, ayla shodiyona!
Ko'ksimda alanga oldi ko'p vaqt,
Ko'nglim g'amin o'ti g'olibona.
Gar bo'lmasa hajr dengizining
Qirg'oqlaridan biror nishona.
Eng yaxshisi shulki, sabr etarman,
Maqsadga shu yo'l bilan yetarman.
O'lsam agar ishq azobidan man,
Dilni uza olmagum g'amingdan.
Oy birla quyosh dilini ezgay,
Nolam meni ko'k sari yetarkan.
Har lahzada qoshlarin kamoni
O'qlar otadi karashmasidan
Zavqin tugatolmagay Atorud
O'tkir qalamini sharhi birlan.
Go'dakman-u, ishq g'amida keksa,
Keksaman-u, ishq g'amida yoshman.
Boshimni tutib misoli Sa'diy,

Sabr aylayin, o'ltiray berib tan.
G'am bandiga soldi bu zamona,
Tashlab meii ko'p uzoqqa sendan.
Eng yaxshisi shulki, sabr etarman,
Maqsadga shu yo'l bilan yetarman.
Ey nozli nigoru sho'x dildor,
Oydek yuzing och - boqar ko'zim zor.
Boshlab yana umr avvalidan,
Tavbam ushatay tamoman, e yor!
Ko'zim yo'lagidan elga, ey do'st,
Sirrim el ichida bo'ldi oshkor.
Ishq ichraki, hajr boshlanibdir,
Qay xilda bu jonga tinchimoq bor?
Umrini butun sovurdi yelga,
Har kimki, g'aminggadur giriftor.
G'am ko'rasi ichra ishq o'tida,
Ey dil, kuy-u, ud kabi degil: yor!
Bosgan izidan o'pishga yorni
Qo'ymaydi zamona birla ag'yor.
Eng yaxshisi shulki, sabr etarman,
Maqsadga shu yo'l bilai yetarman.
Ey qomati sarvu, e gulandom,
Xijlatda yuzingdan oy har oqshom.
Kelgil yana, o't yoquvchi hajring
Ko'nglimdan olibdi sabru orom.
Dil qushdek ilindi u tuzoqqa,
Xol - donayu kokiling bo'lib dom.
Ko'p kezdin-u, yetmadim murodga,
Hajring bila ham olurman orom.
G'am birla firoqu men, bu ahvol
Qayga yetadur topib saranjom?
Hajring g'amidir mudom nasibam,
Yo yo'qmi alamdan o'zga ayyom?
Hofiz, shu erur jah,onda maqsud:
Yor suhbatini bo'lsa-yu, mayu jom!
Hozirdaki b;lmagay muyassar
Dil maqsadi sendan, ey dilorom!
Eng yaxshisi shulki, sabr etarman,
Maqsadga shu yo'l bilan yetarman.
Jon rohati - sevgili nigorim,
Orzuli dilim umidi - yorim.
Shodman g'aming ila, chunki har vaqt
Utlug' alaming mening madorim.
Ketding-u, unutdim o'zni, ey do'st,
Ma'lum emas yo'q ila borim.
Jonimda visoling orzusi,
Hajringda o'tar bu umri zorim.
Utdi bu kecha, nigor, sensiz,
Ko'z sshim oqib, tugab madorim.
To tutmaguncha ajal yoqamdan
Ilgim etagingda - shul qarorim!
Sa'yim bila xasta dil murodi
Hech bo'lmadi hosil, ey nigorim!
Eng yaxshisi shulki, sabr etarman,
Maqsadga shu yo'l bilan yetarman.
Ey, dilga g'amingni zaxmi marham,
Ishqing yuragimga yoru hamdam.
Jon bo'ynida kokiling tanobi,
Ko'nglim uzugi labingni bilsam.
Qoshing tig'idir jonimga jallod,
Dil hokimi bo'ldi ko'zlaring ham.
Ko'ngilda nigor-u, men o't ichra,
Yor ishqini ko'ngilda - boshqa ne g'am!
Maqsadga yetolmay, endi derman:
Boshimni olay uzoqqa shul dam.
Hofiz, na bo'lardi bahra olsang
Dil olamidanki - fayzli olam!
Dilbarni visoli mulki dilga

Osongina bo'lmagach musallam.
Eng yaxshisi shulki, sabr etarman,
Maqsadga shu yo'l bilan yetarman.

Chustiy tarjimasi
Qit'alar

Shoh, vazirlar va'dasiga berma ko'ngil, ey jigar,
Kim bilir - qay yo'l bilan bo'lgay kushod ish oxiriB?
Bor - tavakkal qil: qalamdan to'kilur har bir zamon
Yangi naqshu yangi rang, ammo qayon oning siri?!

* * *

Mening she'rim gulqand erur,
Novvot emas, shahdu asal.
Kimning og'zi novvotdan sho'r,
Ayb etma, kim qanddan o'sal.
G'avg'o tushar boshiga, kim
Zulol suvdan bo'lsa kasal.
Kim onadan tug'mish basir,
Ko'nglin ololgay qay go'zal?

* * *

Bulbul aylar nola-yu, gul xanda qilgay har zamon,
Ne uchun dil kuymasini dildori otash tashlagach?
Chakmani jun zohidu shayxdan yetar noxushlik,
Men g'ulomi mutrib o'ldim savti beg'ash tashlagach.
Zohido, qilma hazar mujgoni tiyridan hecham,
Zaxmi pinhondir oni qoshi kamonkash tashlagach.

* * *

Yaxshi-yomonni sen o'zingdan so'ra,
Muhtasib, boshqadan so'ramak nechun?
Yomondan uzoqlash, yaxshiga yondash,
Behuda o'tmasin umring tunu kun.
Bilasan, rizqimiz beruvchi - Xudo,
Sen tama' ketidan bo'lma ko'p dilxun.

* * *

Mardumozordan it ham etar or,
Itidan pastroqda - kim mardumozor!
Haqiqat bu so'z ichra muhayyo,
Dilga jo bo'lsin undagi ma'no.
Odam-ku sen bilan bir dasturxonda,
It esa ko'chada - sovuq, bo'ronda.
Ming xayf, shul odamdan chiqadi dushman,
Ammo doim vafo ko'rasan itdan!

* * *

To'rt xil joyda - to'rt gavharman, -
Dedi jomga la'lin sharob. -
Zumurradman tok ichinda,
Shisha ichra aqiq, noyob.
Xum ichinda Zuhro ersam,
Jom ichinda - yorqin oftob...
Ey pokiza, oliy zoting bo'lsa hirsu adovatdan,
Ey toza dil, baxt asosing bo'lsa yolg'onu firib,
Ulug' nasab senga qanday ravo bo'lsin, bu tab'ni
Devga tortiq etgan bo'lsa, hatto paridan olib.

* * *

Madrasalar saroyi, toqu ravoq, ilmu bahs,
Dili dono bo'lmasa, foyda keltira olmas.
Fazilatning manbai bo'lsa ham qozixona,
Ko'zi bino bo'lmasa, foyda keltira olmas.
Ey odam, falakdan erkinlik, shodlik,
Xurramlik, aysh-ishrat istasang agar,
Molu hashamatu mansab fikrin qo'y,
Boridan kech - faqat talab et sog'ar!

* * *

Jahon moli ketidan yugurgandim bir zamon
Oxiri tushundimki, foydasidan ko'p zarar.
Falak menga ne bersa, o'lponini undirdi,
Faryod qilganim bilan yoshlik o'tdi sarosar.
Umr o'tib ketmoqda - molu mulk to'xtatolmas,
Umr anduhi bul kun barcha alamdand battar.

* * *

Endi bir nafas umrim ikki jahon moliga -
Alishmayman, qo'sh jahon nazarimda muxtasar.
Vayrona dilim ichra hunarimdir xazinam,
Dilim daryo bo'lsa gar - ostu ust to'liq gavhar.
Bundan keyin boshingga ne ish tutsa ham, Hofiz,
G'am yemayin shod yasha - jahon o'tkinchi, o'tar!

Shoislom Shomuhamedov tarjimalari
Ruboiylar

1

Jonon bu kechani men bilan o'tkazdi,
Bu baxtni menga Xudo o'zi yetkazdi.
O'lim g'ami yo'q endi menga, chunki sanam
Jonbaxsh labidan obi hayot tutqazdi.

2

Ul sham'i Chigil dardini aytib bo'lmas,
Kuygan bu ko'ngil dardini aytib bo'lmas.
Andin yuragimda g'amki, yo'q mahrami roz,
Har kimsaga dil dardini aytib bo'lmas!

3

Bir lahza labingni olmagil jom labidan,
To topsa jahon komini dil jom labidan.
Omuxta jahon jomida achchig'u shirin,
Bul yor labidan yetga-yu, ul jom labidan.

4

Dushmanning jafosidan mudom qoch, ey do'st!
Yaxpsh kishilarga quchog'ing och, ey do'st!
Odam sanama, qo'lingni yuv nokasdan,
Mehrning xunar ahli boshidan soch, ey do'st!

5

Bir mohki, qadi sarvga mengzar, oyo,
Ko'zgu qo'lida - o'ziga bergay oro.
Der menga kulib ro'molcha peshkash etsam:
"Vaslim tiladingmi? Xom xayoling, ammo!"

6

Men bandasi ul kimsanikim, shavqi baland!
Gar bo'ynida tavqi[1] ishq, abas, mavqe baland!
Oshiqshu ishq kayfini sen ne bilasan,
Bul bodani ul kimsa ichar - zavqi baland!

7

Turk chehrali ul farishta jon qasdi edi,
Ko'zdan yashirin hur kabi bo'y-basti edi,
Tor bo'lmasa muncha og'zing - yo'qdek-ku, desam,
Kuymang-da qilib tama'i xom asti, dedi.

8

Ey baxt, faqirga qani bir yor bo'lsang,
Majruhi zamon - dilga madadkor bo'lsang.
Yoshlik-ku chiqib ketdi jilovdek qo'ldan,
Keksalik uzangi kabi poydor bo'lsang...

9

Dam urdi vafodan kim - u dupgman bo'ldi,
Pok kimsa uchun fosiqlik fan bo'ldi.
Tunni dedilar homilador, hayronman:
Er ko'rmay u ikkiqat kimdan bo'ldi?!

10

Yor zulfi panohida suman topdi rivoj,
Yoqut labidan durri Adan topdi rivoj.
Dillarga rivoj bersa labidek koshki,
Dunyo-da uning ishq'i bilan topdi rivoj!

11

Sho'xlikdami, bizning o'sha dilbar toqdir,
Bechora dilim visoliga mushtoqdir.
O'ymoq kabi - og'zi, yuzi - lola, tani - siym,
Shirinso'zu boz latifu siyminsoqdir[2].

12

Do'st birla o'tir hamda mayu jom ista,
Shod etsin o'pich berib gulandom, ista.
Xohlaydi jarohatin botishin majruh.
Jarrohga kelib, darding uchun kom ista.

13

Bo'lsa edi bir sho'x sanamu barbatu[3] nay,
Xilvat va farog'at, yana bir shishada may,
Maydan qizibon tandagi bor tomiru pay,
Bir arpa umid qilmas edik, Hotami Tay!

14

Kel, qo'lda tutib qilguchi shod bodai nob,
Kel, sifla[4] raqibdan yashirin hamda shitob.
Dushman so'ziga kirma sira, ketma, o'tir,
Kel, tingla bu nuktani-yu, no'sh ayla sharob!

15

Bog' ichra bo'lib bodi sabo doyai gul,
Mashshota[5] misoli yasatib poyai gul,
Gar soya aro topsa omonlik oftob,
Bas, ista quyosh yuzlini-yu, soyai gul.

16

Ul jomki, safo gulshani - tut ilkimga,
Yor timsoli sog'ar - ani tut ilkimga.
Zanjir kabi ul may o'ralar o'z-o'ziga,
Devonasi bo'ldim, qani, tut ilkimga!

17

Hargiz meni yod aylamading, sham'i Chigil,
Mushkul esa-da bu men uchun - ko'ndi ko'ngil.
Dardeki, g'amingdan yuragimda qat-qat,
Dil bilga-yu men bilgum, men bilgum-u dil.

18

Sen - to'lgan oy-u, senga quyosh banda emish,
To banda emish o'shal - ravshan-da emish.
Bir chehraki, o'ftob nur emib shu'lasidan,
Oy ham ilibon yog'du bilan sha'n-da emish.

19

Ul fasli yigitlikda sharob ko'p sozdir,
Gul yuzlar ila bodai nob ko'p sozdir.
Olam-ku xarob rabot erur boshdan-oyoq,
Bo'lmoq bu xarob yerda xarob ko'p sozdir.

20

Gar biz kabi sen ham asiri dom bo'lasan,
Azbaski, xarobi bodayu jom bo'lasan.
Dunyasiga o't qo'yguchi oshiq-larmiz,
Biz birla o'tirma sira - badnom bo'lasan!

21

Kim ko'rdi u yordan vafo - men ko'raman?
Kim ko'rdi jafodan safo - men ko'raman?
Umrimsan-u, ammo bevafo-san, ne kilay,
Kim ko'rdi umrdan vafo - men ko'raman?

22

Zulfingning uchi kabi mening qaddim xam,
Oshufta dilim labingni istar har dam.
Pista kabi tang labing - dilimning rizqi,
Holimning tangligi ayon shundan ham.

23

Sendan meni bu falak ayirgandan buyon,
Kim ko'rdi labimda bir tabassumni, qachon?
Har qanchaki hijron g'ami bor ko'nglimda -
Bir men bilaman hamda Xudovandi jahon!

24

Hajring o'gida sham' kabi afzun yig'lay,
Jomdek to'kayin-u ashki gulgun, yig'lay,
May jomiga o'xshayman-u, diltanglikdan
Chang nolasini tinglar ekan, xun yig'lay...

25

To tonggacha yummadim g'aming ichra ko'zim,
To tonggacha yosh to'kdim - ko'p dilda so'zim.

Dardingni birovga sira aytib bo'lmas,
To tonggacha gaplashdim o'zim birla o'zim.

26

Bu so'zi shirinlar ahdiga yo'q poyon,
Oriflar ular yo'lida bergaylar jon.
Ma'shuqa hamisha ixtiyoringda bo'lar,
Ishqbozlar aro bo'lmasa noming doston.

27

Hijron kuni bu - do'stlarni yod aylagali,
Aysh vaqti emas ko'ngilni shod aylagali.
May jomi qoshimda bo'lsa-da hushyorman,
Bir do'stim yo'q, chunki nashot[6] aylagali.

28

Ishqing g'amidan qon to'la dil kishvarida,
Husning sening aql idrokidan tashqarida.
Zulfing ko'yida zoru g'aribdir bu dilim,
Oh, holi uning ne bu tun sendan narida?..

29

Ey, timqora zulfing quyoshga soya,
Go'yoki niqob kulohing[7] yangi oya.
Shom bo'lsa yalovbardor mushkin xatishta,
Tong chokar[8] sen kabi qamarsiy-moya.

30

Jon zulfini halqasi aro istar joy,
Zeroki, balo bandini ochgay ul oy.
Yor qoshi uchun jonimni peshkash[9] qildim,
Ko'rsatsa yuzin zora o'shal qoshi yoy.

31

Gul so'ylar edi: "Oyoq-qo'lim bo'lsaydi,
Qochib qutular edim - yo'lim bo'lsaydi.
Aybim yo'g'-u, shuncha kuydim, oh, yaxshi edi -
Aybim boridan ko'ra o'lim bo'lsaydi...".

32

Sozdir necha dilni may bilan shod etsak,
O'tgan bilan ketganni-da kam yod etsak
Ham bir yo'la zindoniy omonat jonni
Bir lahza aql ilkidan ozod etsak...

33

Bul kecha g'amingdan qon aro yotgumdir,
Ranj bistarida hijron aro yotgumdir.
Gar shubha etarsan, o'z xayolingni yubor,
Ko'rsin o'sha ne afgon aro yotgumdir...

34

Gul g'unchasi to bodaga hamroz[10] bo'lgay,
May maylida nargis qadahsoz bo'lgay.
Forig' dili ul kimsanikim misli hubob[11]
Mayxonaga yo'l tutib, sarafroz bo'lgay!

35

Na davlati dunyoni(ng) sitamga arzir,
Na lazzati mastlikni(ng) alamga arzir,
Na shodligi dunyoni necha ming yillik
Ul bir necha kun mehnatu g'amga arzir.

36

Ulfatlar aro qay kuni dil qildi xitob:
Gul mavsumida tark etayin bodai nob.
Bulbul chaman ichra qichqirib berdi javob:
G'ofil, bu nima - fasli gulu tarki sharob?!

37

Men haqdagi fikringni, sabo, so'zla nihon,
Oz bo'lsa-da ishq izhoriga mingta zabon,
Ohista so'z och so'z orasinda, toki
Sevgimni malol olmasin ul qoshi kamon.

38

Harchand firoq sendan uzoqqa solsin,
Sabrimni yuzing hajri dilimdan olsin,
Bir bor nazarim tushsa bo'lak yuzga agar,
Husning tuzi haqqi, qo'zlarim ko'r bo'lsin!

39

Ich bodanikim, mangu hayot shu asli!
Besh kun bu tiriklikda najot shu asli!
Gul mavsumiyu do'stu yaqinlar sarmast,
Shod bo'l, bu jahonda chin nashot shu asli!

40

O'ldim bo'sa birla quchog'ing orzusida,
Uldim o'sha jonbaxsh dudog'ing orzusida.
Cho'zib netaman qissani, bas, qisqa qilay:
O'ldim, ya'ni boshdan-oyog'ing orzusida!

41

Chehrangki, latofat ichra oyinai ruh,
Tonglarda xayoling qadami bersa shukuh.
Tortishga ko'zimga qo'rqaman kiprikdan:
Bo'lmasmi xayolingning oyog'i majruh?

42

Mazmuni bo'lay, deding, xayol-o'yingning,
Sabr ayla-yu, ko'nglingni mudom tutgil keng.
Oh, sabr qani-yu, dil nima? Aslida dil -
Qondir o'zi bir qatra-yu, andishasi ming.

43

Ko'zingdan makru afsunl yog'iladi,
Vaj izlab jangga qahru kin yog'iladi.
Ko'ngling yana qoldi hamnafaslardan tez,
Berahm dilingdan tosh tayin yog'iladi.

44

G'am ichra misoli boda qaynab netasan?
G'am lashkariga qarshi nechuk jang etasan?
Sabza kabi labdan bodani tutma uzoq,
Sabza bo'yida may ich - behinpta yetasan!

45

Qar kun dilim og'riydi bo'lak qayg'u bilan,
Har kun uradi ko'zga firoq o'zga tikan.
Men jahd etaman vale qazo qaytargay:
"Ish boshqa sen o'ylagandan unda umuman!"

46

Suv ketdi tagiga umr vayronasining,
To'lmoq g'ami bosdi umr paymonasining.
Ey xoja, ko'zingni och, zamon hammoli
Raxtini qo'pormoqda umr xonasining...

47

Ey, tortinadi g'unchai mastur sendan,
Hayronu xijil nargisi maxmur sendan.
Gul teng kela olmas senga, ul mohtobdan -
Gar yog'du emar, oladi oy nur sendan.

48

Hech bir umidingni oqlamas charx - olchoq,
Har aylanishidan titra misli yaproq.
Deding: "Qoradan keyin bo'lak rang bo'lmas,
Bo'ldi nega unda qora sochim oppoq?!"

49

G'amdan o'zga mening madadkorim yo'q,
G'amdan o'zga ishq ichra ham yorim yo'q.
Bas, topmadim o'zga hamdamu hamrozni,
G'amdan o'zga do'stu vafodorim yo'q.

50

Maqsad yo'lida umrni zoye' qildim,
Naf' ko'rmaganimni bu zamondan bildim.
Har kimga degan esam seni do'st tutdim,
Bo'ldi o'sha dushmanim - bag'rini tildim...

51

Ey yor yuzi ishq, meni ko'p zor etma,
Dilxasta bu rind ahlini xummor etma.
Rasmini yo'lovchilarning, so'fiy, bilasan,
Rind ahli haqinda so'zni bisyor etma.

52

Kelmaydi xayolimga o'yingdan o'zga,
Yo'l borini bilmadim ko'yingdan o'zga.
Har diydaga uyqu yoqar, ammo mening
Ko'zimga ko'rinmaydi bo'yingdan o'zga.

53

To hukmi ilohiy bunda mangu bo'lgay,
Hamrohing abad quvonchu kulgu bo'lgay!
Qo'lingdan agar men bir qadah no'sh etsam,
Bas, mangu hayot sarmoyasi shu bo'lgay!

54

May maydalab o'ltirsa, na soz, suv bo'yida,
Dunyo g'amu tashvinshni qo'y - behuda.
Gul umri kabi hayotimiz o'n kundir,

Bil har damini uning g'animat juda.

55

Shodlik qushining navolari kelmoqda,
Yo Bog'i Eram havolari kelmoqda,
Yo yor labidan sabo xabar keltirmish,
Alqissa, ajib sadolari kelmoqda.

56

Avvalda vafo qildi tutib jomi visol,
Mast etdi-yu, hajr aro so'ng otdi u hilol,
Har ikki ko'zim yoshga, dil otashga to'la,
Tuproq kabi jonim yo'lida bo'ldi uvol...

57

Oftobdek ul oy yuzi munavvar bo'ldi,
Xatti bo'yida chashmai kavsar bo'ldi.
Dillarni u soldi chohiga kulgichining,
Choh tegrasi butkul mushku anbar bo'ldi.

58

Sepgan kabi yuz tilim jigar ustiga tuz,
Hajring g'ami tutdi xasta ko'nglim sari yuz.
Qo'rqib yashagan edim mudom hijrondan,
Hayhot, o'sha ayriliq yetib keldi bu kez...

59

Ko'yingda meningdek kishi yo'q bexona,
Nazdingda meningdek kishi yo'q begona.
Zulfing doriga osishgani bejiz emas -
Ishqingda meningdek kishi yo'q devona.

60

Ko'nglim qushi to tushdi g'aming domiga-ey,
Bo'ldi u yo'liqqan kabi tig' komiga-ey,
Dunyo qadahin sharbatidan bezorman,
To'ldi jigarim qoni g'aming jomiga-ey.

61

Vaqt yetdi, xumorlar asta qo'zg'olgaylar,
Yoru mayu soz yonidan joy olgaylar,
O'tkinchi hayotga qasdma-qasd ul damda
Jom birla qadahga qora qon solgaylar.

62

Yer sochini tutdim: "Ey hayotim naqshi,
O'nglagil ishim, dilimning farahbaxshi".
Dedi: "Qo'y-u sochimni, labimni ista,
Bir lahzalik aysh uzun umrdan yaxshi!"

63

Jonon, seni tark aylamak ermas oson,
Zumrad xating qoshida to bermay jon.
Jonimni g'izosidir u yoqut lablar,
Kelmaydi teng unga ikki yuz ming marjon.

64

Derlarki, behisht eshigiga yetgaymiz,

May - qo'lda, malak - quchoqda aysh etgaymiz.
Bas, biz mayu ma'shuqni desak, ne bo'пти?
Ish oqibati shunday ekan, netgaymiz?!

65

Gul baxti juda kulgan ekan gulshanda,
Yig'laydi bulut, gul-chi, qiladi xanda.
Maqtansa-da ozodligidan harchand sarv,
Tik qaddi bilan bo'libdi gulga banda.

66

Vaj topadi, kim bodani inkor qiladi:
Shunday tirilar, har kishi qanday o'ladi!
Bizlar yashadik ma'shuqu may birla mudom,
Bas, hissa: qiyomatda-da shunday bo'ladi!

67

Sho'r baxtim agar bo'lmasa yor, men na qilay?
Ko'nglimni quvonch aylasa zor, men na qilay?
Ko'zimming u gavhari edi - tark etdi,
Bu gavhari yo'q ko'z endi xor, men na qilay?

68

Qay dam nazaring bu dili g'amnokka yetar,
Go'yoki quyosh shu'lasi xoshokka yetar.
So'z qotma, esam-da gar yo'ling tuprog'i,
Ming hayfki, ovvozing agar xokka yetar...

69

Gar ko'ylagini yechsa u oy yuzli pari -
Motdir bu jahondagi go'zallarning bari!
Qalbi ko'rinar ko'ksida nozikligidan
Sof suvda ko'ringan kabi tosh zarralari.

70

Shoh taxtida o'ltirsa-da to'kib yoshini
Gul zorlanadi: "Ko'ring bu dunyo ishini:
Gar shuncha kuyar men kabi shaffof xilqat,
Voy, holiga ming voy gunohkor kishining!"

71

Tokaygacha bu elga jafo qilgaysan?
Ozurda ko'ngillarni yana tilgaysan?
Dil ahli qo'lida qonsiragan tig' bor,
Qoning seni bo'yningda erur bilgaysan?..

72

Tong yeli, o'shal suluvga xushtorligim ayt,
Bir ko'rgali oy yuzini ming zorligim ayt,
Tunlarni shirin uyquda o'tkazguchi ul -
Beg'amga qachondan beri bedorligim ayt.

73

Dedimki: "Labing?" Dedi: "Labim - obi hayot".
"Og'zing-chi?" - dedim. Dedi: "Bu - bir dona nabot".
Dedimki: "So'zing?" Dediki: "Hofiz aytmish:
"So'z pirlarini duo bilan aylang yod!"

74

This is not registered version of TotalDocConverter

Mardlikni so'ra fotihidan Xaybarning![12]
Ximmat sirini xojasidan Qambarning![13]
Haq fayzini, Hofiz, tilasang astoydil,
So'r manbaini soqiysidan Kavsarning!

75

Ey do'st, g'anim jafosiga qo'l silta!
Maydan o'zga safosiga qo'l silta!
Haqni bil-u, o'zingni - bu olam elining
Har yaxshi-yomon bahosiga qo'l silta!

В† Tavq - bo'iinboq bo'iinga osiladigan ziynat; halqa.

В† Siyminsiq - bu yerda: go'zal, zebo ma'nosida.

В† Barbat - sakkiz torli qadimiy musiqa asbobi.

В† Sifla - pastkash, nokas.

В† Mashshota - pardozi.

В† Nashot - shodlik, xursandchilik.

В† Kuloh - bosh kiyim; toj.

В† Chokar - xizmatkor.

В† Peshkash - tortiq, tuhfa, sovg'a.

В† Hamroz - sirdosh, yaqin do'st, ulfat.

В† Hubob - qo'pik.

В† Xaybar fotihi - Hazrat Ali.

В† Qambar - Hazrat Alining quli, xizmatkori.